2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

YANGI O‘ZBEKISTON

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 223 (1822), 2026-yil 28-oktabr, chorshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

ZAMONAVIY STANDARTLARGA ASOSLANGAN TIBBIYOTIMIZDA SHIFOKOR SHARAFI YANADA YUKSALADI

Prezidentimiz 27-oktabr kuni Ko‘ksaroy qarorgohida tibbiyot va farmatsevtika sohasi xodimlari bilan uchrashib, samimiy muloqot qildi, bir guruh soha xodimlariga davlat mukofotlarini topshirdi.





Salomatlik, shubhasiz, inson uchun eng bebaho boylik. Bu ortiqcha izoh yoki isbot talab qilmaydigan haqiqat. Zero, inson hayotida sog‘liqning o‘rni beqiyos. Jamiyat rivoji, mamlakat taraqqiyotida ham bu omil markaziy o‘rin egallaydi. Shu bois, mamlakatimizda keyingi yillarda aholi salomatligini ta’minlash yo‘lidagi islohotlar keng quloch yoydi. Aniq maqsadli va manzilli ishlar jadallashdi. Umuman, sog‘liqni saqlash tizimini zamon talablariga mos isloh qilish yangi O‘zbekiston siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Binobarin, Prezidentimiz alohida qayd etganidek, **“Yangi O‘zbekiston, avvalo, inson hayoti, uning salomatligi, huquq va manfaatlari, qadr-qimmati qonun asosida himoya qilinadigan davlat degani”.**

Davlatimiz rahbari tantanali tadbirda yig‘ilganlarni yaqinlashib kelayotgan kasb bayrami bilan tabriklab, inson salomatligini asrash yo‘lidagi mehnati uchun minnatdorlik bildirdi.

— Oilasining baxtini ko‘rish, halol mehnat qilib, orzulariga yetish, umrini mazmunli o‘tkazish uchun odamga, avvalo, sog‘liq kerak. Shu bois, inson salomatligini asrashni islohotlarimizning eng muhim yo‘nalishlaridan biri etib belgilaganmiz, — dedi Prezidentimiz.

Gap mamlakatimiz tibbiyotidagi o‘zgarishlar, uning yurtdoshlarimiz salomatligini asrashdagi o‘rni haqida borar ekan, beixtiyor kishi o‘zi, yaqinlari yoki tanishlari misolida bugungi tibbiy xizmatni kechagi holati bilan taqqoslayveradi. Buyrak, jigar transplantatsiyasi, yurakka stent qo‘yish kabi murakkab jarrohlik amaliyotini qo‘ya turing, har birimizning oddiy tibbiy xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq hech bo‘lmaganda bittadan hikoyamiz bor.

Davomi 2-betda

“O‘ZINGGA ISHON! O‘Z USTINGDA ISHLA! O‘Z YURTINGGA MUNOSIB BO‘L!” – HAR BIR YOSH SPORTCHINING HAYOTIY SHIORI SHUNDAY

Olimpiya shaharchasida Prezident olimpiadasining tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Unda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi.

Yangi O‘zbekiston. Olti-yetti yil nari-berisida avval mamlakatimizda, ayni paytga kelib, dunyo siyosiy maydonida, global iqtisodiy makonda baralla yangrayotgan ushbu nom faqat milliy g‘urur timsoli emas, balki undan kengroq ma’noga ega. Zotan, ushbu g‘oya asosida keyingi yillardagi islohotlar tufayli mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuksalish barobarida, xalqona aytganda, xalqimiz bag‘riga shamol tegdi.

Mamlakatimizda yangi O‘zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo‘lidagi shiddatli islohotlar hech bir sohani chetlab o‘tmadi. Sportimizda kechayotgan yangilanishlar va qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar bunga yaqqol misol.

Xususan, keyingi yillarda O‘zbekiston sportida tarixiy yutuqlarga erishildi. Birgina Parijda o‘tgan olimpiya va paralimpiya o‘yinlarini olaylik. Butun dunyo sport ishqibozlari kuzatib borgan nufuzli musobaqada vakillarimiz chinakam jasorat ko‘rsatib, 13-o‘rinni egalladi. Yoki xalqimiz 34 yil kutgan tarixiy voqea — futbol bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi ilk bor jahon chempionatida ishtirok etgani ham ana shu zafarli odimlarimizga yorqin dalildir.

Asosiysi, sportchilarimiz har yili, har bir musobaqada yangidan yangi rekordlar o‘rnatib, tarix yozmoqda. Yaqinda Samarqandda o‘tkazilgan jahon shaxmat olimpiadasida yigitlarimiz g‘olib bo‘lgani, Yaponiyada o‘tgan XX yozgi Osiyo o‘yinlarida O‘zbekiston terma jamoasi 21 oltin, 25 kumush va 24 bronza medal bilan umumjamoa hisobida beshinchi o‘rinni egallagani, ushbu musobaqada og‘ir atletikachimiz Akbar Jo‘rayev dast ko‘tarishda 197 kilogramm natija qayd etib, jahon rekordini yangilagani, iqtidorli bokschimiz Abdumalik Halokov, yengil atletikachimiz Sharifa Davronova ikki karra, badiiy gimnastikachimiz Taxmina Ikromova esa uch karra chempion bo‘lgani ham fikrimiz tasdig‘idir.

Yoki shov-shuvi hali tinib ulgurmagan paraosiyo o‘yinlariga nazar solaylik. Parasportchilarimiz mislsiz matonati va jasorati bilan erishgan natija har qancha tahsinga sazovor. Binobarin, ular 45 oltin, 49 kumush va 51 bronza medal bilan umumjamoa hisobida uchinchi o‘rinni egalladi.

Albatta, bunda sportchilarimizning mardligi, yuksak mahorati va so‘nmas irodasi muhim ahamiyat kasb etdi. Ammo ushbu yutuqlarning zamirida boshqa bir jihat — sport sohasida yo‘lga qo‘yilgan yangi tizim, hayotga tatbiq etilayotgan turli loyihalar samarasi turibdi. Prezident olimpiadasi ham ana shunday yangiliklardan.

Bayramona bezatilgan stadionga hududiy terma jamoalar, Osiyo va paraosiyo o‘yinlari g‘oliblari saf tortib chiqdi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING II PREZIDENT OLIMPIADASINING OCHILISH MAROSIMIDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, aziz vatandoshlar!

Qadrli sportchi o‘g‘il-qizlarim!

Hurmatli murabbiylar, sport fidoyilari!

Barchangizni ikkinchi bor o‘tkazilayotgan Prezident Olimpiadasining ochilishi bilan chin qalbimdan tabriklayman.

Bugun mana shu muhtasham majmuada ko‘zida shijoat, qalbida katta orzular bilan yurtimizning turli hududlaridan kelgan minglab sportchi yoshlarimizni ko‘rib turganimdan xursandman.

Har biringiz bu maydonga O‘z orzuingiz, O‘z maqsadingiz, eng asosiysi, g‘alabaga bo‘lgan katta ishonchingiz bilan kelgansiz.

Bugun boshlanayotgan bellashuvlarda 3,5 mingdan ziyod yoshlar olimpiya va paralimpiya yo‘nalishidagi 26 ta sport turi bo‘yicha kuch sinashadi. Ularga 1,5 ming murabbiy hamrohlik qiladi.

Ishonaman, bu yerda bellashayotgan yoshlar orasidan ham ertaga dunyoni hayratga soladigan chempionlar, rekordchilar, albatta, chiqadi.

Aziz do‘stlar!

Biz so‘nggi yillarda ommaviy sportdan — professional sportgacha, iqtidorlarni saralashdan — xalqaro musobaqalarga tayyorlashgacha bo‘lgan yaxlit tizim yaratdik.

Bu ishlar zamirida farzandlarimizni sog‘lom, irodali va mustaqil fikrlaydigan inson etib tarbiyalashga bo‘lgan intilishimiz mujassam.

Bugun yurtimizda yaratilgan imkoniyatlar qanday natija berayotganini xalqaro maydonlardagi g‘alabalar yaqqol ko‘rsatmoqda.

O‘tgan o‘n yilda sportchilarimiz yirik xalqaro musobaqalarda 5 ming 518 ta medalni qo‘lga kiritdi, shuning 1 ming 675 tasi oltin medaldir.

Bu — avvalgi o‘n yillikka nisbatan 3 karra ko‘p.

Ayniqsa, bu medallarning uchdan biri sportchi qizlarimiz hissasiga to‘g‘ri kelayotgani barchamizni quvontiradi.

Yaqinda Samarqandda o‘tkazilgan Butunjahon shaxmat Olimpiadasida yigitlarimiz ikkinchi bor g‘olib bo‘lgani shaxmatimiz tarixida alohida sahifa ochdi.

Yaponiyada o‘tgan XX yozgi Osiyo o‘yinlarida esa terma jamoamiz 21 ta oltin, 25 ta kumush va 24 ta bronza — jami 70 ta medal bilan umumjamoa hisobida 5 o‘rinni egalladi.

Bu musobaqalarda og‘ir atletikachimiz Akbar Jo‘rayev 197 kilogrammlik toshni dast ko‘tarib, jahon rekordini yangiladi.

Bokschimiz Abdumalik Halokov, yengil atletikachimiz Sharifa Davronova ikki karra, badiiy gimnastikachimiz Taxmina Ikromova esa uch karra chempionlik shohsupasiga ko‘tarildi.

Muzaffar To‘raboyev — dzyudoning vatani Yaponiyada mezbonlar vakilini finalda yengib, oltin medal olgani katta mahorat namunasidir.

O‘tkir Jo‘rayev — sport gimnastikasining dastakli ot yo‘nalishida O‘zbekistonga Osiyo o‘yinlaridagi ilk oltin medalni keltirdi.

Davomi 2-betda



1

So‘nggi paytlarda Qudratilla Rafiqovning har bir chiqishi — maqola va esselari siyosiy maydonda, o‘zbek jurnalistlari orasida o‘ziga xos “silkinish — zilzila” va go‘zal “shov-shuv”lar paydo qilayotir. Har bir o‘zbekistonlik — o‘zbek yuragida keng aks sado beradigan bunday “shov-shuv”larga o‘rgandik va hatto kutadigan ham bo‘ldik. Kechagi esseda siyosatshunos-adib mazkur haqiqatni yana bir karra namoyon etdi.

Oldindan ogohlantirib qo‘yay, bu esseni shunchaki o‘qib bo‘lmaydi. Uni qo‘lga qalam olib, har jumla va har fikr atrofida chuqur o‘yga tolib, mulohaza va tafakkur qilmagan kishi essening tub ma’nosi — ildiziga yetolmaydi. Gap unda biz uchun sal begonadek tuyulgan xorijiy va texnik iboralar, terminlarning ko‘pligidagina emas. Asar odamzod ruhiyatidagi, jamiyat qatlamlaridagi murakkab evrilish jarayonlari, millat nomli ulug‘ qavmni uyg‘otish mashaqqatlari haqida ekanidadir. Zero, osmono‘par imoratlar bunyod etish, sershovqin daryolar ochish mumkin, albatta. Ammo millat va jamiyat vujudidagi mudroq buloqlarning ko‘zini ochish hech qachon oson bo‘lgan emas.

Davomi 3-betda

“Qancha zamonaviy klinikalar qurmaylik, eng so‘nggi uskunalarni olib bermaylik, malakali xodimlarsiz natija bo‘lmaydi”. Mamlakatimiz yetakchisi ushbu ta’kid orqali sohadagi navbatdagi masalaga yig‘ilganlar e’tiborini qaratdi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 28-oktabr, 223-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING II PREZIDENT OLIMPIADASINING OCHILISH MAROSIMIDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-betda

Aminman, bunday natijalar yoshlarimizda “uddalash mumkin bo‘lmagan marraning o‘zi yo‘q”, degan ishonchni, albatta, uyg‘otadi.

Qadrli yurtdoshlar!

Bugun parasportchi o‘g‘il-qizlarimizning matonati va jasoratini ham alohida e’tirof etmoqchiman. Ular kuni kecha yakunlangan Paraosiyo o‘yinlarida nimalarga qodir ekanini yana bir bor namoyish etib, 45 ta oltin, 49 ta kumush va 51 ta bronza — jami 145 ta medal bilan umumjamoa hisobida 3-o‘rinni egalladi.

Pauerliftingchi qizimiz Ro‘za Qo‘ziyeva oltin medalni qo‘lga kiritish bilan birga jahon rekordini o‘rnatdi.

Lolaxon Qodirova — suzish bahslarida, Madina Muxtorova va Karomat Omonova — yadro uloqtirishda, Shaxina Yigitaliyeva — nayza uloqtirishda, Navro‘za Axmatova — disk uloqtirishda Osiyo rekordlarini yangilagani barchamizga g‘urur va iftixor bag‘ishladi.

Yegor Bolotov to‘rtta, Xurshid Qodirov uchta oltin medalni qo‘lga kiritgani alohida tahsinga loyiqdir.

Asila Mirzayorova uzunlikka sakrash bo‘yicha Paraosiyo o‘yinlari rekordini yangilab, ikkinchi marotaba Osiyoda tengsiz ekanini barchaga isbotladi.

Quvonarlisi, Asila Mirzayorova Osiyo paralimpiya qo‘mitasining 2026-2030-yillar uchun sportchilar qo‘mitasi a’zosi etib saylandi.

Bu ham o‘zbek sporti xalqaro miqyosda e’tirof etilayotganining amaliy namunasidir.

Musobaqa mezboni Nagoya meri Ichiro Xirosava sportchilarimiz haqida fikr bildirib, “O‘zbeklar nafaqat halol kurashi va raqibga hurmati, balki maydon tashqarisidagi odobi va namunaviy xulqi bilan ajralib turgani”ni alohida qayd etdi.

Bu yuksak e’tirof — o‘zligimizning yorqin misoli.

Fursatdan foydalanib, barcha sportchilarimizga, ularning ustoz va murabbiylariga, farzandining orzusiga ishonib, doimo yonida turgan ota-onalarga samimiy minnatdorlik bildiraman.

Aziz do‘stlar!

Yangi O‘zbekiston — dunyoning nufuzli musobaqalari o‘tkaziladigan xalqaro sport markaziga aylanib bormoqda.

So‘nggi to‘rt yilda yurtimizda jahon va Osiyo miqyosidagi 20 ga yaqin yirik musobaqa tashkil etildi.

Kelgusi yil sentyabr-oktyabr oylarida O‘zbekiston Ozarbayjon bilan birga ilk bor 20 yoshgacha bo‘lgan futbolchilar o‘rtasidagi jahon chempionatiga mezbonlik qiladi.

Albatta, bunday musobaqalarni o‘tkazish biz uchun katta sharaf, shu bilan birga, ulkan mas’uliyatdir.

Eng muhimi, yoshlarimiz dunyoning eng kuchli sportchilari bilan yonma-yon bellashish, o‘z oldiga yanada yuksak maqsadlar qo‘yish imkoniga ega bo‘ladi.

Aziz o‘g‘il-qizlarim!

Bugun sizlarga qarab, O‘zbekiston sportining yorqin kelajagini ko‘rib turibman.

Albatta, chempionlikka olib boradigan yo‘l oson emas. Kuchli iroda va temir intizom bilan faqat va faqat oldinga intilgan har bir inson g‘alabaga erishadi.

Biz ilgari surayotgan “O‘z” g‘oyasining asl maqsadi va mazmun-mohiyati ham shu!

O‘zingga ishon!

O‘z ustingda ishla!

O‘z yurtingga munosib bo‘l!

Bu so‘zlar har biringizning hayotiy shioringizga aylansin!

Shuni unutmanglar, xalqaro maydonda O‘zbekiston bayrog‘i ko‘tarilib, madhiyamiz yangraganida, butun xalqimiz sizlar bilan g‘ururlanadi.

Bunday baxtga erishish har biringizga nasib qilsin!

Biz esa, o‘z oldiga katta maqsad qo‘ygan har bir yosh sportchini qo‘llab-quvvatlashga tayyormiz.

Shu maqsadda bugun Prezident Olimpiadasi ishtirokchilari uchun yangi imkoniyat va rag‘batlarni e’lon qilmoqchiman.

Birinchidan, Prezident Olimpiadasi g‘olib va sovrindorlari uchun pul mukofotlarini kelasi yildan 2,5 baravar oshiramiz. Endi birinchi o‘rin sohiblariga 25 million so‘m, ikkinchi o‘rin uchun 12 million so‘m, uchinchi o‘rin uchun esa 6 million so‘m beriladi.

Ikkinchidan, sportdagi yutuqlar ta’lim olishingiz uchun ham yangi imkoniyat ochadi.

Bundan buyon olimpiadada g‘olib bo‘lib, O‘zbekiston rekordini yangilagan maktab bitiruvchilari oliygohlarning sport yo‘nalishlariga imtihonsiz, davlat granti asosida qabul qilinadi.

Uchinchidan, kelgusida Prezident Olimpiadasi dasturidagi sport turlarini 35 taga yetkazamiz.

Yosh toifasini ham kengaytirib, musobaqani 14 yoshdan 17 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilar o‘rtasida o‘tkazamiz.

To‘rtinchidan, iqtidorli yoshlarning xorijda tajriba orttirishini yanada qo‘llab-quvvatlaymiz.

Har yili Prezident Olimpiadasi g‘oliblaridan 50 nafarini xorijda o‘tkaziladigan xalqaro yig‘inlarga yuboramiz.

Beshinchidan, kelasi yildan Prezident Olimpiadasi g‘oliblariga bir yillik stipendiya berishni boshlaymiz.

Oltinchidan, chempionlarni tarbiyalayotgan sport maktablarini munosib rag‘batlantiramiz.

O‘z yo‘nalishida eng yaxshi natijaga erishgan sport maktabi zarur jihozlar bilan ta’minlanadi.

Yana bir yangilik — poytaxtdagi Olimpiya shon-shuhrati muzeyini Olimpiya shaharchasiga ko‘chiramiz. Ana shunda, yosh sportchilarimiz har kuni chempionlarimizning tarixini ko‘rib, ularning yutuqlaridan ruhlanib, yangi g‘alabalarga intilib yashaydi.

Qadrli farzandlarim!

Bugun sizlar uchun yangi imkoniyatlar ochilmoqda. Ularni tinimsiz izlanish, qat’iy intizom va yuksak bilim bilan katta natijalarga aylantiring!

Musobaqa maydonida munosib raqib, hayotda esa yaxshi do‘st bo‘ling!

Ota-ona va ustozlaringizni hamisha qadrlang!

Halol bellashing, dadil oldinga intiling!

G‘alabangiz oilangizga, mahallangizga va butun yurtimizga quvonch olib kelsin!

Barchangizga shu yo‘lda mustahkam sog‘liq, kuch-quvvat va omad tilayman.

2026-yilgi Prezident Olimpiadasini ochiq deb e’lon qilaman!

Olg‘a Yangi O‘zbekiston!

Olg‘a O‘zbekiston yoshlari!

Olg‘a o‘zbek xalqi!

“O‘ZINGGA ISHON! O‘Z USTINGDA ISHLA! O‘Z YURTINGGA MUNOSIB BO‘L!” – HAR BIR YOSH SPORTCHINING HAYOTIY SHIORI SHUNDAY



Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari ishtirokchilarni ikkinchi bor o‘tkazilayotgan Prezident olimpiadasi bilan tabrikladi.

Shu o‘rinda ushbu musobaqaning tashkil etilishi zaruratiga nazar tashlasak. Prezidentimizning 2025-yil 8-iyuldagi “2028-yil Los-Anjeles shahrida (AQSH) bo‘lib o‘tadigan XXXIV yozgi Olimpiya va XVIII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi qarori bunga huquqiy asos bo‘ldi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad — olimpiya o‘yinlarida sportchilarimizning har tomonlama muvaffaqiyatli ishtirokini ta’minlash, buning uchun iqtidorli sportchilar zaxirasini kengaytirish.

O‘tgan yil 26-noyabrdan 3-dekabrgacha Olimpiya shaharchasidagi stadionda birinchisi marotaba Prezident olimpiadasi o‘tkazilgandi. Unda hududiy saralash musobaqalaridan muvaffaqiyatli o‘tgan sportchilar kuch sinashdi.

2026-yilgi mavsum esa yanada keng ko‘lamda tashkil etilib, bellashuvlarda 3500 dan ziyod yosh sportchi olimpiya va paralimpiya yo‘nalishida sportning 26 turi bo‘yicha kuch sinashadi. Ularga 1500 murabbiy hamrohlik qilmoqda.

Prezidentimiz mamlakatimizda ommaviy sportdan professional sportgacha, iqtidorlilarni saralashdan xalqaro musobaqalarga tayyorlashgacha bo‘lgan yaxlit tizim yaratilganini ta’kidladi. Sportdagi shu kabi tizimli islohotlar natijasida o‘tgan o‘n yilda o‘zbekistonlik sportchilar yirik xalqaro musobaqalarda 5518 ta, jumladan, 1675 ta oltin medalni qo‘lga kiritdi. Bu avvalgi o‘n yillikka nisbatan uch baravar ko‘p ekani, ayniqsa, medallarning har uchtadan bittasi sportchi qizlarimiz hissasiga to‘g‘ri kelayotgani alohida e’tirofga munosib.

Davlatimiz rahbari sportchilar, ularning ustoz va murabbiylari hamda farzandlarining orzusini qo‘llab-quvvatlab kelayotgan ota-onalarga minnatdorlik bildirdi.

O‘zbekiston yirik xalqaro musobaqalar o‘tkaziladigan sport markaziga aylanib bormoqda. So‘nggi to‘rt yilda mamlakatimizda jahon va Osiyo miqyosidagi 20 ga yaqin musobaqa tashkil etildi. Kelgusi yil sentyabr-oktyabr oylarida O‘zbekiston Ozarbayjon bilan birga 20 yoshgacha bo‘lgan futbolchilar o‘rtasidagi jahon chempionatiga ilk bor mezbonlik qiladi.

Prezidentimiz yosh sportchilarga murojaat qilib, yuksak natijaga kuchli iroda, intizom va tinimsiz mehnat bilan erishilishini ta’kidladi.

— O‘zingga ishon! O‘z ustingda ishla! O‘z yurtingga munosib bo‘l! Bu so‘zlar har biringizning hayotiy shioringizga aylansin, — dedi davlatimiz rahbari.

Tantanali ochilish marosimida Prezident olimpiadasi ishtirokchilari uchun yangi imkoniyat va rag‘batlar e’lon qilindi. Jumladan, kelasi yildan g‘olib va sovrindorlar uchun pul mukofoti 2,5 baravar oshiriladigan bo‘ldi. Ya’ni birinchi o‘rin sohiblariga 25 million so‘m, ikkinchi o‘rinni qo‘lga kiritganlarga 12 million so‘m, uchinchi o‘rin uchun esa 6 million so‘m beriladi.

Rag‘batlar faqat pul mukofotidan iborat emas. Xususan, endi musobaqada g‘olib bo‘lib, O‘zbekiston rekordini yangilagan maktab bitiruvchilari oliy ta’lim muassasalarining sport yo‘nalishiga imtihonsiz, davlat granti asosida qabul qilinadi. Kelgusida sport turlari 35 taga yetkazilib, unda 14 yoshdan 17 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilar qatnashadi.

Bundan tashqari, har yili olimpiada g‘oliblaridan 50 nafari xorijdagi xalqaro o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlariga yuboriladi. Kelasi yildan g‘oliblarga bir yillik stipendiya tayinlanadi. O‘z yo‘nalishida eng yaxshi natijaga erishgan sport maktablari zarur jihozlar bilan ta’minlanadi.

> **Tantanali ochilish marosimida Prezident olimpiadasi ishtirokchilari uchun yangi imkoniyat va rag‘batlar e’lon qilindi. Jumladan, kelasi yildan g‘olib va sovrindorlar uchun pul mukofoti 2,5 baravar oshiriladigan bo‘ldi. Ya’ni birinchi o‘rin sohiblariga 25 million so‘m, ikkinchi o‘rinni qo‘lga kiritganlarga 12 million so‘m, uchinchi o‘rin uchun esa 6 million so‘m beriladi.**

Shuningdek, poytaxtdagi Olimpiya shon-shuhrati muzeyi Olimpiya shaharchasiga ko‘chiriladi. Bu yosh sportchilarga chempionlarimiz tarixi va yutuqlari bilan yaqindan tanishish imkonini beradi.

Prezidentimiz yoshlarni ochilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanish, halol bellashish, ota-ona va ustozlarini qadrlashga da’vat etdi. Chunki Prezident olimpiadasi yangi O‘zbekiston yulduzlari kashf etiladigan mahorat maydonidir.

Shundan so‘ng mamlakatimiz yetakchisi 2026-yilgi Prezident olimpiadasini ochiq deb e’lon qildi. Davlatimiz madhiyasi yangradi.

Marosim konsert dasturi bilan davom etdi. Tadbir yakunida O‘zbekiston nomini dunyoga tanitayotgan sportchilarimiz tomonidan Prezident olimpiadasi mash’alasi yoqildi.

Dilshod ULUG‘MURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

ZAMONAVIY STANDARTLARGA ASOSLANGAN TIBBIYOTIMIZDA SHIFOKOR SHARAFI YANADA YUKSALADI

Boshlanishi 1-betda

Uchrashuvda ana shunday xotiralardan biri yodga olindi. Aniqrog‘i, O‘zbekiston Qahramoni Rahmon Muhammadiyev o‘zining poliklinika bosh shifokori bo‘lgan paytlarini eslab, jumladan, bunday dedi: “Ichida birorta ham asbob yo‘q edi, stol-stul qo‘yish, bitta kushetkani topish ham mashaqqat bo‘lgan. Shifokor bilan hamshira o‘tirsa, bemorga joy yo‘q, bemor o‘tirsa, shifokorga joy yo‘q edi. Shuni ham yaxshi deb yurgan ekanmiz.

Bugun tumandagi poliklinikalar Toshkent shahridagi poliklinikalar bilan teppa-teng xizmat ko‘rsatmoqda... Tuman va viloyatlardagi ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlarida minglab yurak va miya operatsiyalari, buyrak transplantatsiyasi, bo‘g‘im almashtirish amaliyoti odatiy holga aylangan...”.

> **Bugun bu fikrlarni baralla, qat’iy ishonch bilan aytish oson. Lekin sog‘liqni saqlash sohasini isloh qilish katta mablag‘ va vaqt talab qilishi zaruratidan kelib chiqsak, bu darajaga erishish oson kechmagani ayonlashadi.**

Haqiqatan, buning zamirida zahmatli mehnat, pandemiya va uning ta’siridagi iqtisodiy tanglikka qaramay, soha rivoji yo‘lida katta mablag‘ ajratilishi bilan bog‘liq qabul qilingan oqilona qarorlar turibdi. So‘nggi yillarda tibbiyot sohasiga yo‘naltirilayotgan mablag‘ hajmi 6-7 barobar oshgani ham fikrimiz tasdig‘idir.

Xalqi sog‘lom davlatning ildizi mustahkam, kelajagi porloq, taraqqiyoti bardavom bo‘ladi. Shu ma’noda, tibbiyot rivojiga yo‘naltirilgan mablag‘ hech qachon samarasiz ketmaydi. U ham bevosita, ham bilvosita jamiyat va davlat taraqqiyotiga zamin yaratadi.

Shuning uchun tibbiyotdan pul tejalmayapti. Barcha imkoniyat ishga solinmoqda. Hajmi tizimli ortib borayotgan mablag‘ hisobidan so‘nggi o‘n yilda 10 million kishiga xizmat ko‘rsatadigan yangi poliklinika va shifoxonalar ishga tushirildi, 58 ming shifo o‘rni ochildi. Zamonaviy muassasalar ko‘payishi va xususiy sektor rivojlanishi natijasida tibbiy xizmat hajmi uch karra oshdi. Ilgari faqat chet elda bajarilgan tug‘ma yurak nuqsonlarini davolash, a’zolar transplantatsiyasi, robot jarrohligi va bosh miyadagi murakkab amaliyotlar kabi yuzdan ziyod xizmat bugun mamlakatimizda ko‘rsatilmoqda.

Farmatsevtika aholi salomatligini ta’minlashda muhim yo‘nalishlardan. Mamlakatimizda ushbu tarmoq rivojiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Asosiy maqsad — dori-darmon mahsulotlariga ehtiyojning 70 foizini ichki imkoniyat hisobidan qoplash. Ayni maqsad yo‘lida keyingi yillarda 1 milliard dollarlik 330 ta yangi farmatsevtika quvvati ishga tushirildi. Ayniqsa, hududlarda farmatsevtika erkin iqtisodiy zonalari tashkil etilib, ularda 1 milliard 200 million dollarlik loyihalar amalga oshirilayotgani aholini sifatli dori-darmon bilan ta’minlash barobarida valyuta tushumini saqlab qolish nuqtai nazaridan ham muhim bo‘lmoqda.

Prezidentimiz bu o‘zgarishlarda 800 mingdan ziyod tibbiyot va farmatsevtika xodimining munosib hissasi borligini ta’kidladi.

Shu yil 26-oktabr kuni mamlakatimiz yetakchisi soha fidoyilarining bir guruhini davlat mukofotlari bilan taqdirlash to‘g‘risidagi farmonni imzolagan edi. Uchrashuvda orden va medallar o‘z egalariga tantanali topshirildi.

Davlatimiz rahbari inson salomatligini asrash, ilg‘or ilmiy ishlanmalar va davolash usullarini joriy etishda boshqalarga o‘rnak bo‘layotgan tibbiyot xodimlari uchun “Ibn Sino” ordenini ta’sis etishni taklif qildi.

Uchrashuvda birlamchi tibbiy yordam sifatini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Bu bejiz emas, albatta. Buyuk tabib va mutafakkir bobomiz Abu Ali ibn Sino tibbiyot sohasi kasallikni davolashdan ko‘ra, oldini olishga ko‘proq e’tibor qaratishi zarurligini qayd etgan. Bugun tibbiyotimizda kuzatilayotgan eng asosiy yutuqlardan biri ham shunda: shifoxonalarga asoslangan eski modeldan kasalliklarning oldini olish va raqamlashtirilgan tibbiyot bosqichiga o‘tilyapti.

Ushbu yo‘nalishdagi islohotlar doirasida 28 ta tumanda yangi tizim sinovdan o‘tkazildi. Uning doirasida 7 million kishi oilaviy shifokorlarga nomma-nom biriktirildi. Yangi tizim mohiyati faqat ro‘yxat tuzib, aholini shifokorlarga biriktirishdan iborat emas. Uning doirasida zamonaviy laboratoriyalar ishga tushirildi, shifokor va hamshiralar o‘qitildi, bemorlarning tibbiy yordam olish tartibi belgilandi. Bundan tashqari, kafolatlangan tibbiy xizmatlar to‘plami doirasida ambulator bemorlarga 69 turdagi dori-darmon bepul berilmoqda. Yangi tizim samaradorligidan kelib chiqib, kelasi yildan ushbu model yana 100 ta tumanda joriy etiladi.

Uchrashuvda qayd etilgan asosiy yangiliklardan biri shuki, kasalliklarning oldini olish va ularni erta aniqlash ishlari kengaytiriladi. Bu borada oshqozon, yo‘g‘on ichak, prostata bezi va o‘pka saratonini erta aniqlash ishlari Samarqanddan boshlanib, 2028-yildan barcha hududda yo‘lga qo‘yiladi. Qandli diabet, sil, yurak-qon tomir kasalliklari, ayollardagi o‘smalar va bolalardagi onkogematologik xastaliklarni erta aniqlash dasturlari davom ettiriladi.

Toshkent shahri, Andijon, Namangan, Farg‘ona va Samarqand viloyatlarida infarkt va insultni erta aniqlash hamda davolash dasturi muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Natijada ushbu kasalliklardan erta o‘lim besh oyda 15 foiz kamaydi. Kasallik boshlanishidagi “oltin soat”da 855 inson erta o‘lim va nogironlik asoratlaridan saqlab qolindi.

Shu bois, dastur kelasi yildan barcha tuman va shaharlarda tatbiq etiladi. Aholi uchun bepul beriladigan dori-darmonlar turi 73 taga, tibbiy tekshiruvlar turi 36 taga yetkaziladi.

Uchrashuvda “Yangi O‘zbekiston tibbiyot standartlari” joriy etilishi, ta’lim, qurilish, sanitariya-gigiyena, bemorlar xavfsizligi va xodimlar madaniyatini qamrab oluvchi birlamchi bo‘g‘in xodimlari bosqichma-bosqich maxsus kiyim-kechak bilan bepul ta’minlanishi qayd etildi. Endi namunali hududlardagi shifokor va hamshiralarni rag‘batlantirish ishlari ham kengaytiriladi. Viloyat bo‘yicha eng yaxshi deb topilgan 14 shifokor elektromobil bilan taqdirlanadi. Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiladigan eng yaxshi o‘nta loyiha muallifiga 200 million so‘mdan grant beriladi.

“Qancha zamonaviy klinikalar qurmaylik, eng so‘nggi uskunalarni olib bermaylik, malakali xodimlarsiz natija bo‘lmaydi”. Mamlakatimiz yetakchisi ushbu ta’kid orqali sohadagi navbatdagi masalaga yig‘ilganlar e’tiborini qaratdi.

Hozir 11 ta davlat oliygohida yiliga 15 ming shifokor tayyorlanmoqda. Kelasi yildan talabalar haftada uch kun bemor bilan ishlashni o‘rganadi. Bitiruvchilar esa oxirgi o‘quv yilini to‘liq tibbiyot muassasasida amaliyotda o‘tkazadi. Bakalavriatni bitirgan hamshira va tibbiyot og‘asiga 1,5 million so‘m, magistraturani tugatganlarga 2,5 million so‘m qo‘shimcha ustama to‘lanadi. 2027-yildan tor soha mutaxassisliklari bo‘yicha rezidenturada o‘qish bepul bo‘ladi.

Tibbiyot xodimlarining malakasini oshirishga xususiy sektor ham jalb qilinadi. Yangi tibbiyot muassasalari aholi soni va hududlarning joylashuvidan kelib chiqib, master-reja asosida tashkil etiladi. Davlat shifoxonalarida tadbirkorlarga zamonaviy uskunalar o‘rnatish uchun joy ajratilib, ko‘rsatilgan xizmatlarga sug‘urta tizimi orqali haq to‘lanadi. Gemodializ, laboratoriya, sterilizatsiya, reabilitatsiya va fizioterapiya xizmatlarini xususiy sektordan xarid qilish kengaytiriladi.

> **Kelasi yili har bir hududga kamida 150 million dollar investitsiya va grant jalb qilish bo‘yicha vazifalar belgilandi.**
> **Genomika, hujayra va biotexnologiyalar rivojlanishi bilan birga tibbiy tadqiqotlarda inson huquqlarini himoya qilish zarurligi ta’kidlandi.**

Ixtisoslashgan markazlar tajribasini hududlarga yetkazish maqsadida jarroh, anesteziolog, reanimatolog, assistent va hamshiralardan iborat yaxlit jamoalar joylarga yuboriladi. Hududlardagi tibbiyot guruhlari esa markazlarda uch-to‘rt oylik stajirovkadan o‘tadi.

Uchrashuvda tibbiyot xodimlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash choralari e’lon qilindi. Sohada kamida 15 yil ishlagan xodimlar ipoteka kreditining bir qismini qoplash uchun 50 milliard so‘m ajratiladi. Natijada kelgusi yilning o‘zida shu imkoniyat orqali ming nafar tibbiyot xodimi yangi uyga ko‘chib o‘tadi. Bundan tashqari, har yili 500 nafar yosh xodimning ipoteka krediti boshlang‘ich badalining 25 foizi qoplab beriladi. Olis hududlarda ishlaydigan shifokorlarning oylik qo‘shimcha ustamasi 4,5 million so‘mga oshirilib, u yerda ish boshlaganlarga 50 million so‘m bir martalik rag‘bat puli beriladi.

Xorij klinikalarida tajriba orttirgan vatandosh shifokorlarni mamlakatimizga jalb etish uchun ham yangi tizim yo‘lga qo‘yiladi. Xususan, ularga 50 million so‘mgacha oylik ustama to‘lanadi, zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan ish joyi va o‘z jamoasini shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Uchrashuvda soha vakillarining taklif va tashabbuslari tinglandi. Mamlakatimiz yetakchisi ishtirokchilarga yuzlanar ekan, “O‘Z” g‘oyasi zamiridagi daxldorlik tuyg‘usi shifokorlar faoliyatining ham asosiy o‘zagi bo‘lishi lozimligiga e’tibor qaratdi.

Ko‘ksaroyda bo‘lib o‘tgan uchrashuvda soha vakillari va shifokorlar, umuman, tizimga doir juda ko‘plab fikrlar bildirildi, tashabbuslar ilgari surildi, rejalar aytildi. Ular bir qarashda faqat ushbu sohaga taalluqliday tuyuladi. Lekin shunisi aniqki, ularning barchasi xalqimiz farovonligi va mamlakatimiz taraqqiyotiga bog‘liq. Bugun mamlakatimiz sog‘liqni saqlash sohasi tubdan isloh qilinib, miqdordan sifat va nazorat bosqichiga o‘tayotgani islohotlar ahamiyatini yanada oshiradi.

Dilshod ULUG‘MURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Davlatimiz rahbari qay manzilga bormasin, kimlar bilan uchrashmasin, iqtisodiyot va ma’naviyat millatning ikkita qanoti bo‘lishi kerakligini qayta-qayta ta’kidlayapti. Bu yo‘nalishda o‘nlab, yuzlab tashabbuslarni o‘rtaga tashlayotgani ham ayon haqiqat.

MILLAT OTASI

yoxud O‘zbekiston Prezidenti qalbidagi orzu-armonlar va tashvishlar haqidagi falsafiy esse-dostonni o‘qib...



Abdusaid KO‘CHIMOV,
senator

Boshlanishi 1-betda

Esseda yurtdoshlarimiz zehniyatidagi mana shu murakkab jarayonlar aniq misollar vositasida yuksak mahorat bilan talqin qilingan. Ularning mohiyatini anglamoq uchun ko‘ksingizda katta ilm-u tafakkur daryosi barobarida chinakam vatanparvarlik tuyg‘ulari ham barq urmog‘i darkor.

2

Biz yuz yildan ko‘p vaqt mobaynida qaramlik va qullik iskanjasida yashadik. Sho‘ro davrida shunday kunlar ham bo‘ldiki, hovlimizda bitta tovuqxona qurmoqchi bo‘lsak ham markazning ruxsatini so‘rashga majbur edik.

Shu o‘rinda muallif asli kelib chiqishi qirg‘izistonlik bo‘lgan AQSHlik tadqiqotchi Erika Maratning “Sovet davrida nafaqat oshxona geografiyasi, milliy ust-boshimiz ham markazdan “loyihalashtirilgan”, “... har bir respublikaga nomini bergan etnik guruhga standartlashtirilgan “an’anaviy” taomlar va kiyinish turlarining muayyan to‘plami tepadan belgilab berilgan” degan so‘zlarini keltirgani behuda emas.

Sovetlar zamonida nafaqat kiyim-kechak yoki qurilish, balki ommani boshqarish uchun “uni ajratib, parchalab boshqar”, degan qoida hukmron bo‘ldi. Sho‘ro siyosatida boshqacha bo‘lishi ham mumkin emas edi. Gruziya, Armaniston, Osetiya, turklar xalifat, xonlik, beklik emas: O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, fors-tojiklarni ham qo‘shib, Tojikiston qilib bir xil standartlashtirildi.

Sovetcha standartlashtirish an’anasi necha-necha yillar o‘z ta’sirini ko‘rsatdi: o‘sha davrda qurilgan binolar arxitekturasiga bir qur nazar tashlagan kishi buni darrov anglab oladi. Ayniqsa, 1966-yilgi Toshkent zilzilasidan keyin qurilgan imoratlar, ular Mustaqillik maydonida bo‘ladimi, Sergeli, Chilonzor yoxud Yunusobod mavzelaridami, bir inkubatordan chiqqan jo‘jalar misoli o‘xshash.

Shu o‘rinda so‘nggi besh-o‘n yilda bunyod etilgan Yangi Toshkent, Yangi Samarqand, Yangi Andijon yoxud haqiqiy Sharq me’morchiligi an’analarini o‘zida aks ettirgan Toshkentdagi Islom sivilizatsiyasi markazi-yu Samarqand shahri yonida qad rostlagan Imom Buxoriy majmuasi, Samarqand aeroporti kabi koshonalarni bir ko‘z oldingizga keltiring. Qarangki, katta ilhom, betakror ijod mahsuli, haqiqiy san’at asarlari shu zahoti jahon hamjamiyati tomonidan hurmat-u ehtirom bilan e’tirof etilar ekan. Ulardan ikkitasi zudlik bilan Ginnesning rekordlar kitobidan o‘rin oldi. Bu har gal ham e’tirof etiladigan hodisa emas. Yangi O‘zbekiston, Uchinchi Renessansning ilk ko‘rinishlari emasmi bular?! Hali bunday ulug‘vor majmualar ko‘plab quriladi.

Xo‘sh, qayoqdan paydo bo‘ldi bunday ulug‘vor o‘zgarishlar? Qanday zaminda dunyoga keladi bir-biridan muhtasham shaharlar-u qasrlar? Albatta, tinch va osoyishta mamlakatda. Mamlakat esa aslida katta oila. Oiladagi tinchlik va osoyishtalikka hamisha oila boshlig‘i — ota bosh-qosh. Demak, yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessans me’mori ham davlatimiz rahbari. Mamlakatimiz yetakchisining katta-yu kichik tomonidan millat otasi maqomida ulug‘lanayotgani sababi ham shunda.

Faqat shahar yoki tuman markazlarida emas, olis-olis qishloqlarda ham ulug‘vor tarixiy o‘zgarishlar sodir bo‘lyapti. Ularning qay birini tilga olishga shoshib qoladi kishi. Keling, o‘zim tug‘ilib o‘sgan Urgutga aloqador voqealardan birini aytib beray.

Bir mahallar qishlog‘imizda kolxozning katta molxonasi bo‘lgan. “Zamonaviylashtirish” shiori ostida cho‘pon-cho‘liqlarga oson bo‘lsin uchun molxonadan chuqurgacha 25-30 qadam uzunlikda temir izlar yotqizilgan. Rahmatli otam oddiy kolxozchi bo‘lsa ham g‘ururi baland odam edi. Qishloq va qishloqdoshlari sha’ni uchun qayg‘urishni o‘zi uchun sharafli burch deb hisoblar va mavridi kelganda boshqalardan kam emasligini ko‘rsatib qo‘yish uchun ozgina lof ham qo‘shib yuborardi.

Qish kunlarining birida hamqishloqlar eshak-otlarni yo‘rttirib, tumanning narigi tomonidagi ovulga to‘yga boradi. “Bizning qishloqda zo‘r maktab qurildi”, deb maqtanib qoladi gurung payti mezbonlarning “og‘zi katta”si. “E, ortda qolib ketibsizlar-ku! — deb darrov javob qaytaradi otam. — Ancha bo‘ldi bizning qishloqqa poyezd kelganiga!”.

To‘ydan qaytayotganda hamqishloqlarimiz “Ko‘chimboy, lof ham evi bilan-da. Ko‘changizda eshak arava arang yuradi-yu, poyezd deysiz-a!” deb otamga tanbeh bermoqchi bo‘ladi. Shunda otam “Molxonadagi temir izlar poyezd yo‘li bo‘lmay, nima?” deb hammani kuldiradi.

O‘tgan asrning 60-yillaridagi hangomalar bu. Qancha suvlar oqib ketdi o‘shandan beri. Zamonlar o‘zgardi, sovetlar barham topdi, mustaqil bo‘ldik. Ammo atigi o‘n yil avval ham bu gaplarga hech kim ishonmas, “tushingni suvga ayt”, deb masxara qilardi. Qalovini topsa, xalq qalqsa, asrlarga tatigulik ishlar bo‘lishi mumkin ekan o‘n emas, ikki-uch yil ichida ham. Urgut temir yo‘li bunga bitta misol. Yo‘l O‘zbekiston Prezidentining 2023-yil 10-oktabrdagi qaroridan keyin rejalashtirildi. 2025-yil 25-may kuni o‘tkazilgan taqdimotda esa davlatimiz rahbariga mazkur yo‘lning 7 kilometriga temir iz yotqizilgani to‘g‘risida axborot berildi. Oradan bir yil o‘tar-o‘tmas, 55 kilometr uzunlikdagi temir yo‘l qurib bitkazildi. Odamlarning ko‘z o‘ngida afsonalar haqiqatga, ertaklar chinga aylandi.

55 kilometr! Ot arava yoki mashina yo‘li emas, temir yo‘l! Yana qayerda? Mamlakatimizning Tojikiston bilan chegaradosh sarhadida!

Bu yo‘l ishga tushirilgani tufayli qancha odam ishli bo‘lgani, tojikistonlik necha yuzlab birodarlarimiz va sayyohlar uchun qulay sharoitlar yaratilgani, logistika imkoniyatlari kengaygani, tumanda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni tashish xarajati kamaygani, aholining uzog‘i yaqin bo‘lgani bir masala, temir yo‘l xosiyati bilan Urgutda yangi shahar paydo bo‘layotgani esa har qanday ko‘ngilni iftixorga burkamay qo‘ymaydi.

Faqat Urgut emas, Toshkent viloyatining Parkent va Bekobod tumanlariga, Xorazmning qadimiy Xiva shahriga ham poyezdlar bordi qisqa vaqt orasida.

Urgut — Samarqand temir yo‘lining ochilish marosimida Prezidentimiz ishtirok etdi. Birinchi poyezdning dastlabki yo‘lovchilari safida bo‘lganimdan hanuz g‘ururlanaman. Poyezdda ketayotganimizda Shavkat Miromonovich o‘ziga yarashgan tabassum bilan: “Urgutga juda katta mablag‘ olib kelyapman, hali aytaman”, degani esa hanuz qulog‘im ostida jaranglab turibdi. Davlatimiz rahbarining yoqimli tabassumida zohir bo‘lgan sir mehnatkashlar bilan uchrashuvda ayon bo‘ldi — Urgutda yuz ming kishilik yangi shahar bunyod etilishi haqidagi xabar ma’lum qilindi! Yuz ming! Cho‘tga solib ko‘rsangiz, bu — dunyo xaritasidagi butun boshli ayrim mamlakatlarning jami aholisidan ziyod.

Ko‘p o‘tmay, Yangi Urgut ko‘kka bo‘y cho‘za boshladi. 9, 12, 20 qavatli uylarga birin-ketin baxtiyor oilalar ko‘chib kiraverdi. Buyam mayli, 30-40 yil avval bittagina vinzavodi-yu bittagina muzqaymoq ishlab chiqarish sexi bo‘lgan tumanda bugun 400 xildan ortiq sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarilayotganiga nima deysiz! O‘n yilda, bor-yo‘g‘i o‘n yilda dunyoga keldi va kelayotir shularning hamma-hammasi!

3

Esseni o‘qiyotib, yozuvchi Abdulla Qahhorning bir gapi yodga tushdi. Domla o‘quvchilar bilan o‘tgan uchrashuvlarning birida mustamlaka masalasiga to‘xtalib, ichki isyonini: “Biz hatto kolonizator-mustamlakachilarga ham yolchimagan ekanmiz”, deya ifoda etadi.

“Paxta kampaniyasi” deyilmish ayanchli manzaralar “yolchimaganlik”ning og‘riqli manzaralaridan yana biridir. Bu mavsumdagi azob-uqubatlarni bir eslaylik. Barcha mashmasha hammaning ko‘zi oldida ochiqchasiga, tazyiq bilan, majburan amalga oshirilardi. Har yili ming-ming, hatto millionlab maktab o‘quvchilari, talabalar, ishchi-xizmatchilar oylab o‘qishi, ishidan ajratilgan holda qishloq xo‘jaligi ishlariga jalb qilinardi. Qarshilik qilganlarga ishi va o‘qishidan haydashga qadar jazo choralari qo‘llanardi. Natijada o‘quv dasturlarini o‘zlashtirolmagan minglab chalasavod mutaxassislar paydo bo‘lar edi mamlakatda.

Million-million tonna paxta yetishtirsakda, paxtadan to‘qilgan oddiy chit, surp matolariga zor edik. Shunday paytlar bo‘lganki, mayitning kafaniga paxtadan tayyorlangan 5-6 metrli oddiy surp ham mahalla qo‘mitasiga rasman murojaat qilinganidan keyin olinar edi. Do‘konlarda yo‘q edi. Ne-ne mashaqqat bilan O‘zbekistonda yetishtirilgan 4-5 million tonna paxta hosili Moskvadagi “gosplan” degan idorada taqsimlanardi. Inson qadri, inson manfaatlariga munosabat ana shunday achinarli ahvolga tushib qolgan edi. Hatto O‘zbekistonning buyuk va qadrli birinchi rahbari, Ikkinchi jahon urushi qahramoni Sharof Rashidov paxta yig‘im-terimi paytida, dalada jon taslim qildi.

4

Ha, olis tariximizda ham, yaqinida ham afsuslanadigan, o‘kinadigan nuqtalar oz emas. Xalqimiz bosqinlar, talon-tarojlar, qatag‘onlar ostida azob chekdi. Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Habib Abdullayev kabi yuzlab buyuk iste’dod egalarini ehtiyotlab, himoya qila olmadi. Vaholanki, esseda qayd etilgan mashhur qozoq siyosatchisi kabi biz amerikalik yoki germaniyalik, yaponiyaliklarni (ularning noyob qobiliyati, iste’dodini tan olgan holda) oramizdan qidirmaymiz. O‘zimizning iste’dodlarimiz bor, ularni asrab-avaylab, isrof qilmay saqlab qolsak, shuning o‘zi bas. Allohga shukrlar bo‘lsinki, did, farosat jonimizda, qonimizda, ongimizda, o‘zimizda yetarli.

Prezidentimizning oqilona siyosati tufayli tarixiy fojialardan qutuldik, milliy boyligimiz — noyob iste’dod egalarini asrash, qo‘llab-quvvatlash zamoniga yetdik. Bugun barcha sohada bo‘lgani kabi yuksak iste’dod egalarini qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish, o‘sib kelayotgan yosh nihollarni tarbiyalash borasidagi ibratli yumushlar oz emas. Mamlakatimizda iqtisodiyotni rivojlantirishga qanchalar e’tibor berilsa, ilm-fan, o‘qish-o‘rgatish, ma’naviyat va ma’rifatga undan-da ko‘p diqqat-e’tibor qaratilyapti.

Davlatimiz rahbari qay manzilga bormasin, kimlar bilan uchrashmasin, iqtisodiyot va ma’naviyat millatning ikkita qanoti bo‘lishi kerakligini qayta-qayta ta’kidlayapti. Bu yo‘nalishda o‘nlab, yuzlab tashabbuslarni o‘rtaga tashlayotgani ham ayon haqiqat.

Aslini olganda, mamlakat degani ham kattakon ro‘zg‘or. Dasturxon to‘kinligi, oila baxti, uning kelajagi uchun esa ro‘zg‘or kattakoni — otasi qayg‘uradi. Millat taqdiri uchun esa davlatimiz rahbari — millat otasi qayg‘urmoqda...

5

Qudratilla Rafiqov ushbu esse orqali biz — jurnalistlar, qalam ahliga ham ko‘zgu tutdi. Kamchiligimiz, xijolat bo‘ladigan joylarimiz ko‘pligini ko‘rsatdi.

Ayniqsa, Prezidentimiz faoliyatini keng ommaga yetkazishdagi uquvsizliklarimizni (bu masala to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zimga va kasbdoshlarimga aloqador bo‘lgani tufayli) men hozirgi dolzarb yumushlarning eng birinchisi deb bilaman. O‘zbek tili lug‘atida “madh” va “maddoh” degan so‘zlar mavjud. Ildizi o‘xshash bo‘lsa-da, bu so‘zlarning ma’no-mazmuni ayricha. Biz esa ko‘pincha “madh”ni “maddoh”likka aylantirib yuboramiz. Go‘yo shunday qilsak, yozganlarimiz bekam-ko‘st bo‘ladiganday. Bor, qilingan, qilinayotgan ishlarning mohiyatini ko‘rsatib berishga erinamiz yoki salohiyatimiz yetmaydi. Yozganlarimizda bir qop yong‘oq misoli “shaldir-shuldir” gaplar ko‘payib ketadi. Qilinayotgan ishlarni tahlillar asnosida ko‘rsatishni eplolmayapmiz.

Yana bir toifa ijodkor do‘stlarimiz esa “dunyoni suv bossa, o‘rdakka ne g‘am” degandek mudrab, uyqusirab yuradi. Vaholanki, mamlakatimizda adabiyot va san’atga hech qachon, shu so‘zni yana bir karra takrorlayman, hech qachon bugungichalik hurmat-ehtirom ko‘rsatilgan emas! Har yili o‘nlab yozuvchi va shoirlar, aktyor va boshqa san’atkorlar davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlanyapti. Ularga uy-joylar berilyapti, turli shakllarda ardoqlanyapti. Ammo shunday hamkasblarimiz borki, jillaqursa ijtimoiy tarmoqlarda fikr aytishni ham o‘zlariga ep ko‘rmaydi. Masalaga mas’ul tashkilotlar esa tadbirbozliklar-u uchrashuvbozliklarga haddan ortiq ko‘p vaqt sarflamoqda. Vaholanki, ko‘paygan matoh hamisha arzonlashadi, qadrsizlanadi.

Mamlakatimiz va dunyoda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni sharhlab beradigan institutlar, ekspertlar, intellektual guruhlarning ovozi ham sezilmaydi. Intellektual doiralarni, ziyolilarni, xalqni o‘ylash, fikrlash, xulosalar chiqarish, qalblarda qatlanib yotgan dardlarni uyg‘otib yuborishga undovchi tahlillar oz, juda kam.

6

Qudratilla Rafiqov bu asarida, o‘z ta’biri bilan aytganda, ikki “yaltiroq” so‘z — “inqilob” va “g‘urur” istilohlariga izoh berish orqali bugungi jamiyatga ko‘zgu tutadi. Inson va mamlakat taraqqiyoti uchun tafakkur ozodligi qanchalar muhim ekaniga urg‘u beradi. Siz-u bizni mulohaza yuritib, tafakkur qilishga undaydi. Va siz-u bizga gohida mayda, ahamiyatsizdek bo‘lib tuyulgan kichik nuqtalar ortida o‘ta muhim hayotiy haqiqatlar yotganini tahlil qiladi. Aynan ana shu tahlillar fonida “inqilob”, “g‘urur” va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qiyofasi namoyon bo‘ladi.

Millat yaxlitligi mujassamlashgan mazkur uchlik uyg‘unlashuvida beixtiyor qalbingizga quloq tutasiz. Shu mahalgacha anglamayotgan ko‘p narsalarni fahmlagandek bo‘lasiz. Shu butunlikning bir halqasi bo‘lishni ko‘nglingizga tugasiz.

Abdulla Qahhor: “Men katta-kichik degan narsani tan olmayman. Nahotki paxta uchun kurash yirik bo‘lsa-yu, bola tarbiyasi kichik...”, deb yozgan edi. Millat, mamlakat taqdiri haqida gap ketayotganda yoki yo‘lovchi katta yo‘lga chiqqanda mayda masala bo‘lishi mumkinmi?

Yo‘q, albatta.

Jamiyat qachon o‘zgaradi? Uni o‘zgartiradigan kuch bormi?

Albatta, bor. Bu — odam. Uning tafakkuri.

Inson ruhiyatidagi ozodlik epkinlari jamiyatni o‘zgartiradi. Bunga ishonavering. So‘nggi o‘n yillikda O‘zbekiston tom ma’noda yangi qiyofa kasb etganining tub ildizi ham shunda. Bu evrilishlar o‘z-o‘zidan bo‘lib qolgani yo‘q, albatta. Ammo, shunday bo‘lsa-da, guvohmiz, hammasi — besh, hammasi joyida deb baralla aytishga hali bor.

Sabab?

Sababga o‘tishdan avval bobomeros qadim rivoyatni eslang: uzoq vaqt qafasda saqlangan qush nihoyat ozodlikka chiqadi. Eshik ochiladi. Qushcha panjara ortidangina ko‘rgan, talpingan keng osmon sari parvoz qiladi. Ammo bir muddatdan keyin, ne ko‘z bilan ko‘ringki, yana qaytib o‘sha o‘zi o‘rgangan qafasga qaytib kiradi...

Qudratilla Rafiqovning esselarida aks etgan og‘riqli nuqta — ba’zi odamlardagi ana shu “qafas sog‘inchi”.

Bir misol. Bundan o‘n yillar oldin mahalla fuqarolar yig‘ini idoralari peshtoqida katta-katta harflarda yozilgan bir xil shiorlar urf edi. “Shahar bedarvoza emas!”. Aynan ushbu yozuvlar ostida yana shunday bitta da’vat ham bo‘lardi: “O‘z uyingni o‘zing asra!”.

Birinchi shiordan ko‘ngling g‘ururga to‘lsa, keyingisidan ko‘ngilga g‘ulg‘ula tushardi. Bu “aqlli” shior va “da’vat” biri birini inkor qilib turgani hech kimni qiziqtirmasdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev hokimiyatga kelgach, “Inson qadri uchun” degan g‘oya o‘rtaga chiqdi. Bu shunchaki qog‘ozga o‘ralgan qup-quruq shiorning o‘zi emasdi. Tez orada mahallalarimiz hayotimizning eng qaynoq nuqtalariga aylandi. Xalqimizning halolligi, mehnatkashligi, eng og‘ir sinovlarni ham matonat bilan yengib o‘ta olishiga tarix ko‘p bor guvoh bo‘lgan. Shu joyda Qirg‘izistonning birinchi prezidenti Asqar Akayevning sobiq sovet ittifoqi yiqilib, mintaqa davlatlari mustaqillikni qo‘lga kiritgan ilk yillar haqidagi quyidagi fikri o‘ta ahamiyatli: “... Rostini aytsam, 90-yillarda, prezident bo‘lganimda, menda bir shubha bor edi: qirg‘izlar bozor mexanizmlarini o‘zlashtirib keta oladimi, o‘zbeklar bilan raqobatlasha olamizmi deb ko‘p o‘ylanardim. Chunki mening nazarimda bozor iqtisodiyotiga o‘tishimiz bilan o‘zbek birodarlar butun Markaziy Osiyoni egallab, boshqaradigandek edi. Sababi ular sovet davridayoq bunga tayyor bo‘lgan. Ammo barchamiz Islom Karimovdan minnatdor bo‘lishimiz kerak. U kishi o‘zbeklarni dunyodan ajratib qo‘ydi. Shu bilan u qirg‘iz va qozoqlarga imkoniyat yaratib berdi. Shuning uchun Qirg‘izistonda Islom Karimovga haykal o‘rnatgan bo‘lardim. U bizga yo‘l ochib bergani uchun qirg‘izlar bozor mexanizmlarini o‘zlashtirib oldi. Agar raqobat bo‘lib, Islom Karimov O‘zbekistonni ochib qo‘yganda edi, mana, hozir Mirziyoyev kabi dunyoga ochilganda edi, biz ular bilan raqobatlasha olmas edik”.

Taniqli qozoq shoiri, davlat va jamoat arbobi O‘ljas Sulaymonov esa o‘tgan asr boshlarida bo‘lgan ocharchilik yillari haqidagi so‘zlari bilan o‘zbek xalqi azaldan naqadar mehnatkash ekanini ulug‘laydi. “Millionlab qozoqlar hayotning bu sinoviga dosh berolmay, ochlikdan qirilib ketdi. Yon qo‘shnimiz o‘zbeklar esa bu mashaqqatlarni matonat bilan yengib, deyarli talafot ko‘rmadi. Ular mehnatkash, eng og‘ir damlarda ham yashab qolish yo‘llarini biladi. Agar qozoq xalqi o‘zbeklardan o‘rganganda ocharchilik yillari buncha ko‘p qurbonlik bermagan bo‘lar va bugun qozoqlar nufusi hozirgidan bir necha million ko‘p bo‘lardi, hozir ham o‘zbeklardan o‘rganish kerak...”, deya davom etadi.

“Shavkat Mirziyoyev inqilobi yoxud men Prezidentim bilan nega g‘ururlanaman?” essesi kishida o‘z millati va Vatani bilan faxrlanish tuyg‘ularini kuchaytirishga da’vat etishi bilan ham ahamiyatli.

7

Davlatimiz rahbari xalqimizga suyanib, uning orzu-umidlarini ko‘zlab, tun-u kun mehnat qilayotganini ko‘rib turibmiz. O‘zbek xalqi esa Asqar Akayev, O‘ljas Sulaymonov ta’kidlaganidek, hech qanday qiyinchilik oldida taslim bo‘ladigan anoyilardan emas. Aksincha, uning qonida yaratuvchanlik, bunyodkorlik va bag‘rikenglik har doim bo‘lgan va shunday bo‘lib qoladi. Ana shunday bunyodkor xalqqa munosib yo‘lboshchining borligi Yaratgan Egamning xalqimizga cheksiz marhamatidan o‘zga narsa emas.

So‘nggi o‘n yilda mislsiz o‘zgarishlarning guvohi bo‘ldik. Yuz yilliklar davomida bunyodkor xalqimiz yo‘li, ongi, ruhiga qo‘yilgan taqiq, to‘siqlar chilparchin bo‘ldi. Biz shularni o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rdik, ta’bir joiz bo‘lsa, shularning ichida bo‘ldik, yashadik.

Bir vaqtlar buzib tashlangan boshqa yo‘llar ham tuzatildi. Bir-biriga deyarli begonalashib qolgan mintaqadagi besh davlat bir mushtga aylandi. Endi jahonning eng yirik davlatlari Markaziy Osiyo tomon intilmoqda. Pul muammosi bartaraf qilindi. O‘z oyligini ololmay, banklar atrofida sargardon kezinishlar tugadi. Minglab ishsizlar ishli bo‘ldi. “Bosmachi” deb haqoratlangan xalq qahramonlari haqida birinchi bo‘lib roman yozgan Mamadali Mahmudov kabi o‘nlab beayb ijodkorlar ozodlikka chiqarildi.

Turli sabablar bilan chet elga ketib qolgan va urush o‘choqlarida qiynalgan vatandoshlarimiz, ularning ayollari, bolalari yurtga olib kelindi. Adashganlar kechirildi, kechirilmoqda. Umuman, xorijda yurgan o‘zbekistonliklarga Vatan darvozalari katta ochilmoqda.

Bularni sanab, sanog‘iga yetish qiyin.

Xo‘sh, kim bunday g‘amxo‘rlik qila oladi?

Ota!

Mamlakat fuqarolarini o‘z farzandi deb bilguvchi ota.

Millat otasi. El-yurt manfaati uchun qayg‘uradigan sardorni oddiy xalq “ota” deb ulug‘layotganining asl sababi ana shunda. Ha, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ona xalqining izzat-ikromiga sazovor bo‘ldi. Ota maqomiga erishdi.

Qudratilla Rafiqovning essesini o‘qir ekansiz, beixtiyor ko‘nglingizdagi tuyg‘ular tilingizga chiqqanini bilmay:

— Shavkat Mirziyoyev — mening Prezidentim!

— Shavkat Mirziyoyev — millat otasi! — deb yuborganingizni sezmay qolishingizning sabablari ham ana shunda — millat otasiga cheksiz mehr-muhabbatingizda.

8

Talon-tarojlar, bosqinlar, qirg‘inlar, qonxo‘rliklar avj olgan, tinch mamlakatning osoyishtaligini ko‘rolmaydiganlar tomonidan qo‘ni-qo‘shnilarni bir-biriga gijgijlash, toza buloqlarni loyqalatish yo‘lida fitnalar uyushtirilayotgan alg‘ov-dalg‘ov zamonda tarozi pallasini teppa-teng ushlab turish hazilakam gap emas. Mamlakat tinchligini asrash uchun odamda qancha qobiliyat, mahorat, siyosiy iroda, aql-u zakovat va yana qanchadan-qancha insoniy fazilatlar bo‘lmog‘i esa yolg‘iz Yaratganga ayon. Zero, bunday bebaho xislatlar kimda bo‘ladi?

Otada! Mehribon va jonkuyar otada!

Millat otasida!

Afsuski, odam bolasi yaxshilikni tez esdan chiqaradi. Yutuqlardan suyunish o‘rniga arzimas narsalardan kir izlaydi. Qildan qiyiq axtaruvchilarga insof va diyonat tilagan holda baralla ovozda:

— O‘n yilda yuz yillik yutuqlarga erishgan O‘zbekistonning har go‘shasi hali afsonaviy bog‘larga aylanadi. Buning uchun kim ekanimizni, o‘zimizni, o‘zligimizni yanada teran anglamog‘imiz lozim, — degingiz keladi.

Alqissa, Qudratilla Rafiqovning esse-dostonidan olgan ilk taassurotlarimni millatimiz otasi “Biz o‘z mehnatimiz, aql-u idrokimiz bilan hammani tan olishga majbur qilamiz!” deya qayta-qayta takrorlagan da’vati asosida yozilgan she’riy satrlar bilan yakunlamoqchiman:

MAJBUR QILAMIZ!

Biz uchun kuyganni, kuymaganni ham,
Mehrimiz tuyganni, tuymaganni ham,
Bizlarni suyganni, suymaganni ham,
Yurak qo‘rimizdan masrur qilamiz —
Bizni tan olishga majbur qilamiz!

Lekin pashshaga ham bo‘lmagaymiz g‘ov,
Begona bog‘larda qilmagaymiz ov,
Faqir bo‘lsa hamki, bo‘lsa hamki yov,
Mahvash bog‘imizga manzur qilamiz,
Bizni tan olishga majbur qilamiz!

Jahonni o‘ziga qaratgan xalqmiz,
Olamda sharaflar taratgan xalqmiz,
Ikkita Renessans yaratgan xalqmiz,
Vatanni oydan-da mashhur qilamiz,
Bizni tan olishga majbur qilamiz.

Biz ko‘rgan, ko‘rmagan tomonlar haqqi,
To‘zonli, to‘fonli zamonlar haqqi,
Jahongir Turkiston, Turonlar haqqi,
Millat ko‘kragini mag‘rur qilamiz,
Bizni tan olishga majbur qilamiz.

To‘g‘ri, tinch bo‘lmadi doim yo‘limiz,
Tumanli bo‘ldi goh o‘ng-u so‘limiz,
Hech kimdan past emas, ammo qo‘limiz,
Dillarni dillarga maxmur qilamiz,
Bizni tan olishga majbur qilamiz!

Bugun uyg‘onmoqda qadimiy bo‘ston:
Yangi O‘zbekiston — qudratli tug‘yon —
Qudratli har ko‘ngil, har dil bir doston,
Turkiston uyg‘ondi, uyg‘ondi Turon,
Zamin-u zamonni mamnun qilamiz,
Bizni tan olishga majbur qilamiz.

Daryodil, sheryurak yurtboshi bilan,
O‘zbekning mehribon quyoshi bilan,
Qurdoshi, qo‘ldoshi, yo‘ldoshi bilan,
Jumlai jahonni maftun qilamiz,
Bizni tan olishga majbur qilamiz!

Xalqaro valyuta jamg‘armasi ham O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun talab bosimlarini nazorat qilish, makromoliyaviy barqarorlikni saqlash va xususiy sektor yetakchiligidagi barqaror o‘sishni kuchaytirish muhimligini ta’kidlamoqda.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 28-oktabr, 223-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news



Tahlil

TARAQQIYOTNING YANGI IQTISODIY FORMULASI

Har qanday mamlakat taraqqiyotini baholashda faqat bugungi statistik raqamlarga qarab xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Chunki iqtisodiyot kecha erishilgan natijalar, bugun amalga oshirilayotgan islohotlar va ertaga belgilangan maqsadlar bilan uzviy bog‘langan murakkab tizimdir. Shu ma’noda, O‘zbekistonning 2030-yilgacha bo‘lgan taraqqiyot manziliga iqtisodiy nuqtai nazardan qarasak, oldimizda turgan vazifa yalpi ichki mahsulot hajmini shunchaki ko‘paytirishdan ko‘ra ancha keng ekanini ko‘ramiz.



Zumrad G‘OYIBNAZAROVA,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

Gap, avvalo, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan, raqobatbardosh, xususiy sektorga tayanadigan, zamonaviy texnologiyalardan foydalanadigan va inson kapitaliga suyanadigan iqtisodiyotni shakllantirish haqida bormoqda. Bugungi iqtisodiy ko‘rsatkichlar mamlakatda bunday o‘zgarishlar uchun muayyan poydevor shakllanganini ko‘rsatmoqda. 2026-yilning birinchi yarmida O‘zbekiston iqtisodiyoti 8,5 foiz o‘sdi. Sanoatda 8 foiz, xizmatlarda 16,9 foiz, qurilishda 13,8 foiz, qishloq xo‘jaligida 4,7 foiz o‘sish kuzatilgan. Bu raqamlar, shubhasiz, iqtisodiy faollik yuqori ekanini namoyish etadi.

O‘zbekiston iqtisodiyoti uzoq yillar davomida davlatning iqtisodiyotdagi yuqori ishtiroki, resurs va xomashyo omillariga katta tayanish, ichki bozorning nisbatan yopiqligi hamda ayrim tarmoqlarda raqobat imkoniyatlari cheklangani bilan xarakterlandi. Bunday model muayyan davrda iqtisodiy o‘sishni ta’minlashi mumkin. Ammo zamonaviy dunyo iqtisodiyotida raqobat tobora kuchayib borayotgan bir sharoitda faqat resurslarni ko‘paytirish orqali yuqori natijaga erishish qiyin. Shuning uchun so‘nggi yillarda iqtisodiy siyosatning mazmuni sezilarli darajada o‘zgarmoqda. Bozor mexanizmlarini kuchaytirish, xususiy mulk va tadbirkorlikni rag‘batlantirish, valyuta bozorini liberallashtirish, davlat korxonalarini transformatsiya qilish, tashqi savdo va investitsiya muhitini yaxshilash kabi yo‘nalishlar iqtisodiy islohotlarning muhim qismlariga aylandi. Bu jarayonlarning umumiy mantig‘i bitta maqsadga borib taqaladi — iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish.

Prezidentimiz tomonidan keyingi bosqichdagi islohotlarda iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o‘sish modeliga o‘tkazish, investitsiyalarni ilg‘or texnologiyalar transferi, yuqori qo‘shilgan qiymat va mehnat unumdorligi bilan bog‘lash vazifasi alohida ta’kidlanmoqda. Bu yondashuv iqtisodiy siyosatda muhim bir burilishni anglatadi: endi investitsiyaning o‘zi emas, investitsiya natijasida qanday texnologiya, qanday mahsulot, qanday unumdorlik va qanday qo‘shilgan qiymat paydo bo‘lishi muhim. Prezidentimizning 2026-yil uchun belgilagan ustuvor vazifalarida ham har bir investitsiya dollari ilg‘or texnologiyalarni olib kirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarish, resurslardan samarali foydalanish va mahalliy kadrlarni yangi texnologiyalarga tayyorlashga xizmat qilishi zarurligi qayd etilgan. Demak, islohotlarning bugungi bosqichi “ko‘proq mablag‘”dan “ko‘proq samara”ga o‘tish bilan tavsiflanmoqda.

Jahon banki tahlillarida O‘zbekiston uchun muhim vazifalardan biri o‘sishning investitsiyalarga haddan tashqari bog‘liqligini kamaytirish va umumiy omillar unumdorligini oshirish ekani qayd etilgan. Bunda texnologiya, boshqaruv sifati, raqobat muhiti va inson kapitali hal qiluvchi omillar



sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, kechagi tajribadan chiqadigan eng muhim saboq — kapital va resurslarni ko‘paytirishning o‘zi yetarli emas. Bir xil resursdan ko‘proq iqtisodiy natija olishni o‘rganish kerak. Bu esa unumdorlik masalasini iqtisodiy siyosatning markaziga olib chiqadi.

2025-yilda O‘zbekiston iqtisodiyoti real hisobda 7,7 foiz o‘sdi. 2026-yilning olti oyida esa iqtisodiy o‘sish 8,5 foizga tezlashdi. Shu bilan birga, 2026-yil aprelida inflyatsiya yillik hisobda 7 foizgacha pasaydi. Aholining real jami daromadlari birinchi chorakda 7,8 foiz o‘sdi. Bu ko‘rsatkichlar iqtisodiy o‘sishning aholi turmush darajasiga ta’sirini baholashda muhim ahamiyatga ega. Biroq yuqori o‘sish sur’ati avtomatik ravishda yuqori sifatli o‘sish degani emas. Iqtisodiyotning barqarorligi uchun o‘sish sur’ati bilan bir qatorda inflyatsiyani nazorat qilish, byudjet va tashqi balansni mustahkamlash, aholi real daromadlarini oshirish, investitsiyalar samaradorligini ta’minlash kabi vazifalar ham bir vaqtning o‘zida hal etilishi zarur.

Xalqaro valyuta jamg‘armasi ham O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun talab bosimlarini nazorat qilish, makromoliyaviy barqarorlikni saqlash va xususiy sektor yetakchiligidagi barqaror o‘sishni kuchaytirish muhimligini ta’kidlamoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi iqtisodiy o‘sishni ertangi taraqqiyotga aylantirish uchun uning manbalari va tarkibiga alohida e’tibor qaratish zarur.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida mamlakatni uzoq muddatli taraqqiy ettirishning aniq maqsadlari belgilangan. Jumladan, 2030-yilga borib yalpi ichki mahsulotni 240 milliard dollardan oshirish, aholi jon boshiga YIMni 5,8 ming dollardan yuqori darajaga yetkazish, yillik inflyatsiyani 5 foiz darajasida ta’minlash, davlat qarzining YIMga nisbatini 50 foizdan oshirmaslik kabi vazifalar belgilangan. Bular muhim ko‘rsatkichlar. Ammo 240 milliard dollar bu yakuniy natijaning raqamdagi ifodasi, xolos. Uning ortida iqtisodiyotning butun tuzilmasini o‘zgartirish vazifasi turibdi.

2030-yilga borib iqtisodiyotda nodavlat sektor ulushini 85 foizga yetkazish, davlat ishtirokidagi korxonalarni qisqartirish, bank tizimida xususiylashtirish va raqobatni kuchaytirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni davom ettirish kabi vazifalar belgilangan. Demak, 2030-yilning iqtisodiy manzilini faqat YIM hajmi bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Uni unumdorlik, raqobat va inson kapitali kabi uchta muhim mezon bilan ham baholash lozim.

Birinchi ustuvor vazifa — unumdorlik iqtisodiyoti. Kelgusi yillarda iqtisodiy siyosat markazida “ko‘proq ishlab chiqarish” bilan birga “samaraliroq ishlab chiqarish” tamoyili ham turishi tabiiy. Buning uchun texnologik modernizatsiyani jadallashtirish, sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymat zanjirlarini shakllantirish, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarga yo‘naltirilayotgan mablag‘ samaradorligini oshirish, raqamli texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayonlariga keng joriy etish talab etiladi. Ayniqsa, mehnat unumdorligini korxona va tarmoqlar kesimida muntazam baholash muhim. Chunki zamonaviy iqtisodiyotda “qancha mablag‘ sarflandi?” degan savol bilan birga, “sarflangan mablag‘ qancha qo‘shilgan qiymat yaratdi?” degan savol ham qo‘yilishi kerak. Bu yondashuv investitsiya siyosati mazmunini ham o‘zgartiradi. Endi har qanday yirik loyihaning ahamiyati faqat uning qiymati bilan emas, balki qancha yangi texnologiya, qancha yuqori malakali ish o‘rni, qancha eksportbop mahsulot va qancha qo‘shilgan qiymat yaratayotgani bilan o‘lchanishi zarur.



Ikkinchi ustuvor vazifa — xususiy sektor va raqobat. Iqtisodiyotda raqobat bor joyda yangilanish tezlashadi. Raqobat tadbirkorni xarajatlarni kamaytirishga, mahsulot sifatini oshirishga, yangi texnologiyalarni joriy etishga va iste’molchi talabiga moslashishga undaydi. Shuning uchun davlat ishtirokini qisqartirishning o‘zi yakuniy maqsad emas. Asosiy vazifa — davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi munosabatlarni iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan qayta qurish. 2030-yilgacha iqtisodiyotda nodavlat sektor ulushini 85 foizga yetkazish maqsadi aynan shu jarayonning ko‘lamini ko‘rsatadi. Bu yerda xususiy sektorni shunchaki iqtisodiyotning bir qismi emas, balki yangi ish o‘rinlari, innovatsiyalar, eksport va raqobatning asosiy manbalaridan biri sifatida ko‘rish muhim. Kuchli xususiy sektor faqat ko‘plab xususiy korxonalar degani emas. Bu bozor talabini his qiladigan, texnologiyaga sarmoya kiritadigan, mahsulot sifatini muntazam oshiradigan va tashqi bozorlarda raqobatlasha oladigan milliy kompaniyalar tizimidir.

Uchinchi ustuvor vazifa — inson kapitali. Iqtisodiy taraqqiyotning eng katta resursi yer ostida yoki yer ustida emas. U insonning bilimi, malakasi, tajribasi va yangilik yaratish qobiliyatida mujassam. Texnologiyalar yangilangan sari mehnat bozori ham o‘zgaradi. Kecha yetarli bo‘lgan kasbiy bilim bugun talabni qondirmasligi mumkin. Shuning uchun 2030-yilgacha iqtisodiy strategiyani ta’lim va kadrlar siyosati bilan uzviy bog‘lash muhim. Muhandis, texnolog, dasturchi, iqtisodchi, agronom, geolog, metallurg yoki boshqa mutaxassisning raqobatbardoshligi endi faqat diplom bilan belgilanmaydi. Uning zamonaviy texnologiyani tushunishi, raqamli vositalardan foydalana olishi, xorijiy tajribani o‘zlashtirishi, jamoada ishlashi va yangi yechim taklif qila olishi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu ma’noda, inson kapitaliga investitsiya iqtisodiyotga investitsiyaning eng uzoq muddatli shaklidir.

2030-yilgacha belgilangan iqtisodiy maqsadlar ishlab chiqarishning o‘zi bilan cheklanmaydi. Strategiyada iqtisodiyot va aholi uchun yetkazib beriladigan elektr energiyasi miqdorini 120 milliard kilovatt-soatdan oshirish, elektr taqsimlash tarmoqlaridagi yo‘qotishlarni 9 foizgacha kamaytirish kabi vazifalar belgilangan. Bu raqamlar sanoat taraqqiyoti uchun energetik infratuzilmaning qanchalik muhim ekanini ko‘rsatadi. Chunki raqobatbardosh sanoat uchun faqat zavodning o‘zi yetarli emas. Barqaror elektr energiyasi, zamonaviy logistika, raqamli infratuzilma, sifatli kadrlar va samarali moliyaviy tizim bir-birini to‘ldirishi kerak. Eksport masalasi ham shunday. 2030-yilga borib xorij bozorlariga 15 ta milliy brendni olib chiqish maqsadi mamlakat iqtisodiyotining oddiy xomashyo yetkazib beruvchidan tayyor mahsulot va brendlar yaratuvchiga aylanish zaruratini ko‘rsatadi.

Bugun iqtisodiy boshqaruvda yana bir muhim yondashuv shakllanmoqda: hujjat ishlab chiqishning o‘zi emas, aniq natijaga erishish. Har bir islohotning samarasi aniq ko‘rsatkichlar, muddatlar va mas’uliyat bilan o‘lchanishi kerak. Chunki iqtisodiyotda eng qimmat resurs — vaqt. Qabul qilingan qaror natijasi yillar davomida kutilib, keyin uning samarasizligi aniqlansa, bu nafaqat moliyaviy, balki imkoniyatlar nuqtai nazaridan ham katta yo‘qotishdir. Shu sababli iqtisodiy islohotlarni baholashda natijaga yo‘naltirilgan yondashuv tobora muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, yangi korxona qurilgani emas, uning qancha mahsulot ishlab chiqarayotgani, investitsiya jalb qilingani emas, u qancha yangi qo‘shilgan qiymat yaratayotgani, yangi ish o‘rni ochilgani emas, ushbu ish o‘rnining unumdorligi va daromad darajasi qanday ekani muhim. Bu iqtisodiy tafakkurdagi juda katta o‘zgarish.

Xo‘sh, 2030-yilgacha bo‘lgan iqtisodiy taraqqiyotni qanday bir formula bilan ifodalash mumkin? Menimcha, bu formulani “ko‘proq resurs — ko‘proq o‘sish” tamoyili bilan cheklab bo‘lmaydi. Yangi bosqichda formula boshqacha bo‘lishi kerak: ko‘proq bilim — yuqori unumdorlik — kuchli raqobat — yuqori qo‘shilgan qiymat — farovon hayot. Bu zanjirning har bir bo‘g‘ini keyingi natijani belgilaydi. Bilim bo‘lmasa, texnologiyani o‘zlashtirish qiyin.

Bugungi raqamlar ertangi maqsadlarga yo‘l ko‘rsatadi. Ammo 2030-yildagi iqtisodiy manzilni raqamlarning o‘zi emas, balki ular ortida turgan yangi ish o‘rinlari, yangi texnologiyalar, yangi korxonalar, yangi eksport bozorlari, yuqori malakali kadrlar va insonlar hayotidagi real o‘zgarishlar belgilaydi. Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotining kelgusi bosqichi ham aynan shunda o‘sishdan unumdorlikka, resursdan bilimga, xomashyodan qo‘shilgan qiymatga, ichki bozordan global raqobatga o‘tishda namoyon bo‘ladi. Bu yo‘lda eng muhim kapital esa insonning bilimi, mehnati va yaratuvchanlik salohiyatidir. Shu jihatdan qaraganda, taraqqiyotning yangi iqtisodiy formulasi bitta raqamga emas, butun bir yangi iqtisodiy tafakkurga tayanadi.



Hududlar hayoti

JIZZAX – DUNYO ISHONCH MAYDONIDA

Viloyat ilk bor mustaqil xalqaro kredit reytingiga ega bo‘ldi



Oybek QO‘SHBOQOV,
Parlament tadqiqotlari instituti bo‘lim boshlig‘i,
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Yangi O‘zbekistonda hududlarni kompleks rivojlantirish, har bir viloyatning o‘ziga xos salohiyatini to‘liq ishga solish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Bu sa’y-harakatlar natijalari endi xalqaro moliya hamjamiyati tomonidan ham e’tirof etilmoqda. Fitch Ratings xalqaro reyting agentligi 2026-yil 16-oktabrda Jizzax viloyatiga xorijiy va milliy valyutadagi uzoq muddatli emitent defolt reytinglarini “BB−” darajasida berdi, prognoz “Barqaror”. Viloyat tarixida ilk bor mustaqil xalqaro kredit bahosini oldi.

Xalqaro kredit reytingi hududning moliyaviy holati, majburiyatlarini o‘z vaqtida bajara olish qobiliyati va iqtisodiy barqarorligiga mustaqil agentlik tomonidan berilgan bahodir. Xorijiy investor biror hududga mablag‘ kiritishdan oldin, avvalo, mana shu ko‘rsatkichlarga e’tibor qaratadi. Shu ma’noda, Fitch bahosi Jizzaxning jahon miqyosidagi o‘ziga xos “tashrif qog‘ozi” vazifasini o‘taydi.

Viloyat reytingi mamlakatimiz suveren reytingi bilan uzviy bog‘liq. Fitch 2026-yil 3-iyunda O‘zbekistonning suveren reytingini “BB” darajasida tasdiqlab, prognozini “Barqaror”dan “Ijobiy”ga o‘zgartirgan edi. Agentlik bunda islohotlar izchilligi, byudjet taqchilligi rejadagidan kamligi, inflyatsiya pasayishi va xalqaro zaxiralar o‘sishini asosiy omil sifatida ko‘rsatgan. Xalqaro amaliyotda hududiy hokimiyat organlari reytingi odatda davlat reytingidan yuqori bo‘lmaydi. Jizzaxning suveren darajadan bir pog‘ona pastda turishi tabiiy va asosli natijadir.

E’tiborli jihati, agentlik viloyatning moliyaviy profilini “AA” deb baholagan. Fitch metodologiyasida bu ko‘rsatkich hudud qarz yukining joriy daromadlarga nisbatan qanchalik yengilligini aks ettiradi. “AA” esa shkalaning yuqori pog‘onalaridan biri. Demak, viloyat moliyasi bugun mustahkam asosga ega.

Fitch tahlilchilari Jizzax iqtisodiyoti respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan tezroq o‘sayotganini qayd etgan. Rasmiy statistika ham buni tasdiqlaydi. 2025-yilda viloyat yalpi hududiy mahsuloti 8,2 foiz o‘sib, Namangan viloyati bilan birga mamlakatdagi uchinchi eng yuqori natijani ko‘rsatdi. Shu davrda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 7,7 foiz o‘sgan.

Davlatimiz rahbari raisligida 2026-yil 30-yanvarda o‘tkazilgan yig‘ilishda viloyatda so‘nggi yillarda erishilgan natijalar atroflicha tahlil qilindi. Unda qayd etilishicha, sanoatning hudud iqtisodiyotidagi ulushi 9,1 foizdan 18,8 foizga oshgan, qishloq xo‘jaligi ulushi esa 50 foizdan 36 foizga tushgan. Sanoat ishlab chiqarishi 1,9 barobar, xizmatlar 1,6 barobar, eksport 1,8 barobar o‘sgan. Viloyatga 1,4 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilingan, eksportchi korxonalar soni 160 taga yetgan.

Eng muhimi, islohotlar samarasi odamlar hayotida o‘z aksini topmoqda. Mazkur davrda ishsizlik darajasi 4,9 foiz bandga, kambag‘allik 5,8 foiz bandga qisqargan. Bu raqamlar ortida yangi ish o‘rinlari, barqaror daromad manbaiga ega bo‘lgan minglab oilalar turibdi.

Prezidentimizning 2026-yil 30-yanvardagi “2026–2027-yillarda Jizzax viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori viloyat taraqqiyotining yangi bosqichini belgilab berdi. Hujjatga ko‘ra, ikki yil davomida yalpi hududiy mahsulotni yiliga o‘rtacha 8,5 foiz, sanoat ishlab chiqarishini 7,8 foiz, bozor xizmatlarini 13,2 foiz o‘stirish ko‘zda tutilgan. 5 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb etilib, 2026-yilda eksport hajmi 500 million dollarga yetkaziladi.

Qaror doirasida umumiy qiymati qariyb 2,56 milliard dollarlik 99 ta loyiha amalga oshiriladi. Ulardan 39 tasi tog‘li, 60 tasi cho‘l hududlarda joylashgan. Avtomobil sanoati kooperatsiyasi asosida kamida 200 turdagi avtokomponent ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi. Jizzax shahri va Sharof Rashidov tumani oralig‘ida Yangi Jizzax shaharchasi hamda 10 kilometrli halqa yo‘l barpo etiladi.

Ijtimoiy yo‘nalishdagi vazifalar ham aniq belgilangan. 2026-yilda viloyatda ishsizlik darajasini 3 foizga, kambag‘allikni 2,8 foizga tushirish, Jizzax shahri va oltita tumanni kambag‘allik va ishsizlikdan xoli hududga aylantirish maqsad qilingan. Chekka mahallalarda ijtimoiy obyektlar, yo‘llar, ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlarini rivojlantirish uchun 2026-2027-yillarda 40 million dollar ekvivalentidagi mablag‘ yo‘naltiriladi.

Xalqaro reyting hududga to‘g‘ridan to‘g‘ri sarmoya olib kelmaydi, ammo investorlar uchun ishonch eshigini ochadi. Endi Jizzaxning moliyaviy holati to‘g‘risidagi ma’lumot xalqaro moliya institutlari, xorijiy kompaniyalar va banklar uchun umume’tirof etilgan tilda taqdim qilinmoqda. Bu yirik investitsiya loyihalari bo‘yicha muzokaralarda viloyatning mavqeini mustahkamlaydi.

Reyting hududga yangi mas’uliyat ham yuklaydi. Agentlik bahoni muntazam qayta ko‘rib chiqadi. Erishilgan darajani saqlash va kelgusida oshirish uchun mahalliy byudjet shaffofligini ta’minlash, mablag‘lardan samarali foydalanish va qarz olishda qat’iy intizomga amal qilish talab etiladi. Mamlakatimiz suveren reytingi oshgan taqdirda viloyat uchun ham yuqoriga harakatlanish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Jizzaxning xalqaro kredit reytingini olgani yurtimizdagi hududiy islohotlarning amaliy samarasidir. Uzoq yillar agrar viloyat sifatida tanilgan hudud bugun sanoat, eksport va investitsiyalar markazlaridan biridir. Endi asosiy vazifa xalqaro ishonchni yangi investitsiyalar, yangi ish o‘rinlari va aholi turmush farovonligiga aylantirishdan iborat.

Nuqtayi nazar

Bugun dunyo taraqqiyoti sur’ati ishlab chiqarish hajmi, moliyaviy resurslar yoki tabiiy boyliklar bilan birga ma’lumotni qanchalik tez, aniq va samarali boshqarish salohiyati bilan ham belgilanmoqda. XXI asrda raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning alohida tarmog‘i emas, balki barcha sohalarni harakatga keltiruvchi yangi infratuzilmaga aylandi. Shu ma’noda, raqamlashtirishni faqat kompyuter, dastur yoki elektron xizmatlarni joriy etish bilan izohlash to‘g‘ri emas. U boshqaruv madaniyatini o‘zgartirish, qaror qabul qilish sifatini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish, vaqtni tejash, shaffoflikni ta’minlash va eng muhimi, taraqqiyotning yangi iqtisodiy modelini shakllantirish demakdir.



Poziljon OTAQULOV,
Farg‘ona davlat universiteti moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori, dotsent





RAQAMLASHTIRISH – YUQORI SAMARADORLIK, SHAFFOF VA INNOVATSION BOSHQARUV ARXITEKTURASI

Mamlakatimizda keyingi yillardagi keng ko‘lamli islohotlar jarayonida raqamlashtirish ana shunday strategik mazmun kasb etmoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, davlat boshqaruvini zamonaviy talablar asosida tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish, inson omili ishtirokini qisqartirish, ortiqcha byurokratik jarayonlarni bartaraf etish va davlat xizmatlarini aholi uchun yanada qulaylashtirish ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Bu borada belgilanayotgan maqsadlar ko‘lamiga e’tibor bersak, masalaning nechog‘liq muhim ekanini anglash qiyin emas. Elektron hukumat platformasini tubdan yangilab, davlat xizmatlari, minglab funksiya va vazifalar, yuzlab ma’lumotlar bazasi hamda axborot tizimlarini yagona raqamli muhitga integratsiya qilish vazifasi belgilangan. Bu esa davlat boshqaruvida “ma’lumot — qaror — natija” zanjirini yangi sifat bosqichiga olib chiqishni anglatadi.

Eng muhimi, raqamlashtirish iqtisodiyot uchun shunchaki texnik yangilik emas. U resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradigan iqtisodiy mexanizm. Masalan, biror jarayon qog‘oz shaklida amalga oshirilganda vaqt, mehnat, qog‘oz, arxiv, transport va boshqa xarajatlar yuzaga keladi. Shu jarayon elektron shaklga o‘tkazilganda esa nafaqat qog‘oz, balki inson mehnati va vaqt sarfi ham qisqaradi. Demak, raqamlashtirishning birinchi iqtisodiy natijasi — xarajatlarni optimallashtirish.

Ikkinchi muhim natija — shaffoflik. Raqamli tizimdagi har bir amaliyot, har bir qaror va har bir harakat muayyan darajada elektron iz qoldiradi. Bu esa subyektiv yondashuv, manfaatlar to‘qnashuvi, korrupsiyaviy xavflar va yashirin iqtisodiy munosabatlarning oldini olish imkonini kengaytiradi. Shu jihatdan raqamlashtirish iqtisodiy boshqaruv bilan bir qatorda halollik va institutsional ishonchni mustahkamlash vositasi hamdir.

Uchinchi jihat — tezkorlik. An’anaviy boshqaruvda ma’lumotni yig‘ish, saralash, tahlil etish va qaror qabul qilish uchun ancha vaqt zarur. Raqamli boshqaruv esa ma’lumotlarni real vaqtga yaqin rejimda tahlil qilish, muammoni oldindan ko‘rish va tegishli choralarni o‘z vaqtida belgilash imkonini beradi. Bugungi raqobat muhitida esa vaqtning o‘zi iqtisodiy resursdir.

To‘rtinchi jihat — ma’lumotning qiymati. Ilgari korxona yoki muassasa uchun yer, bino, texnika, mablag‘ va mehnat resurslari asosiy resurs sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, bugun ular qatoriga ishonchli va tizimlashtirilgan ma’lumot ham qo‘shildi. Qaysi yo‘nalishda qancha resurs sarflanmoqda? Qaysi jarayon samarali? Qaysi xarajatni optimallashtirish mumkin? Qaysi investitsiya ko‘proq natija beradi? Bunday savollarga aniq raqamlarsiz javob berish qiyin.

Shu bois, zamonaviy moliyachi uchun raqamlashtirish buxgalteriya dasturi yoki elektron hujjat aylanishidan ancha keng tushuncha. U dalilga asoslangan moliyaviy boshqaruv tizimidir. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot jadal rivojlanayotgani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi besh yilda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yalpi qo‘shilgan qiymatning o‘rtacha o‘sish sur’ati 24,8 foizni tashkil etib, yalpi ichki mahsulot o‘sish sur’atidan 3,5 barobar yuqori bo‘lgan. Axborot va aloqa sohasida ish bilan ta’minlanganlar soni ham sezilarli ko‘paygan. Demak, raqamlashtirish endi kelajakning mavzusi emas, balki bugungi iqtisodiy o‘sishning muhim omillaridan.

Yana bir muhim jihat shundaki, raqamlashtirishning haqiqiy samarasi



texnologiya sifatida emas, inson imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida ishlashi bilan belgilanadi. Texnologiya inson o‘rnini bosish uchun emas, aksincha, uning vaqtini tejash, qobiliyatini ochish, qaror qabul qilishini yengillashtirish va mehnat unumdorligini oshirish uchun xizmat qilsa, haqiqiy taraqqiyot omiliga aylanadi.

Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim tizimidagi raqamlashtirish alohida ahamiyatga ega. Chunki universitet faqat ta’lim beruvchi muassasa emas. U bir vaqtning o‘zida katta inson kapitali, moliyaviy resurslar, moddiy-texnik baza, axborot oqimi, ilmiy salohiyat va boshqaruv qarorlari jamlangan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir.

Farg‘ona davlat universitetida raqamlashtirish masalasiga aynan ana shu nuqtai nazardan yondashilmoqda. Bugun OTMda raqamli ta’lim texnologiyalarini rivojlantirishga ixtisoslashgan alohida markaz faoliyat yuritmoqda. Uning vazifasi ta’lim va boshqaruv jarayonlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ulardan samarali foydalanishni tashkil etish hamda ushbu jarayonlarni muvofiqlashtirishdan iborat. Markaz tarkibida dasturchilar, tizim va tarmoq administratorlari, veb-dizayner, kontent-menejerlar va boshqa mutaxassislardan iborat jamoa shakllangani universitet raqamli infratuzilmasi oddiy texnik xizmat ko‘rsatish darajasidan institutsional boshqaruv bosqichiga ko‘tarilayotganini ko‘rsatadi.

OTMda raqamlashtirish faqat ta’lim bilan cheklanib qolmayapti. 2026/2027-o‘quv yiliga tayyorgarlik jarayonida talabalarning turli masalalar bo‘yicha elektron ariza topshirishi, talabalar turar joylariga joylashish asnosida raqamli platformalardan foydalanishi kabi imkoniyatlar kengaydi. Bunday yondashuv talaba uchun vaqt va ovoragarchilikni kamaytirsa, universitet uchun boshqaruv jarayonini tartibga solish, ma’lumotlarni tizimlashtirish hamda resurslarni samarali taqsimlash imkonini beradi. Buning yana bir muhim jihati bor: raqamlashtirish resurslarni aniq hisoblash imkonini oshiradi.

Raqamli transformatsiyaning eng katta iqtisodiy falsafasi xarajatni emas, natijani boshqarishdir. Masalan, ta’lim jarayonida biror laboratoriyaga mablag‘ ajratishning o‘zi hali natija emas. Natija shu laboratoriyadan qancha talaba foydalandi, qanday ilmiy ishlanmalar yaratildi, qanday loyihalar amalga oshirildi, qanday mutaxassislar tayyorlandi, ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi qanday oshdi degan savollarga javob bilan belgilanadi.

Bugun universitetlar moliyaviy boshqaruviga yangi talablar qo‘yilmoqda. Endi moliya bo‘limi faqat hisob-kitob yurituvchi tuzilma bo‘lib qolmasligi kerak. Zamonaviy moliya xizmati strategik qarorlar uchun tahliliy markazga aylanishi zarur. Shu ma’noda, Farg‘ona davlat universitetida ta’lim, ilmiy faoliyat, talabalar bilan ishlash, boshqaruv va moliyaviy jarayonlarni bir-biridan alohida emas, yagona raqamli ekotizim sifatida ko‘rish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellektning kirib kelishi bu jarayonni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu yerda e’tiborli jihat talabalarning sun’iy intellektni tayyor texnologiya sifatida qo‘llashi emas, balki uning imkoniyatlaridan foydalanib, yangi yechimlar ishlab chiqishga intilayotganidir. Chunki kelajak iqtisodiyotining eng katta boyligi texnologiyaning o‘zi emas, aksincha, texnologiya yarata oladigan inson bo‘ladi. Shu bois, universitetning raqamlashtirish siyosatida ikki vazifa parallel ravishda bajarilishi kerak. Birinchisi, jarayonlarni raqamlashtirish bo‘lsa, ikkinchisi raqamli iqtisodiyot uchun yangi avlod kadrlarini tayyorlashdir.

Farg‘ona davlat universitetida AT, sun’iy intellekt, axborot tizimlari va texnologiyalari, moliya va moliyaviy texnologiyalar kabi yo‘nalishlar rivojlanib borayotgani ana shu ehtiyojga hamohang. OTMning vazifasi — raqamli texnologiyalardan foydalanadigan mutaxassis tayyorlash bilan birga raqamli muhitda iqtisodiy fikrlay oladigan, ma’lumotni tahlil etadigan, innovatsion qarorlar qabul qiladigan va o‘z g‘oyasini mahsulotga aylantiradigan inson kapitalini shakllantirish.

O‘zbekistonning AT xizmatlari va dasturiy mahsulotlar eksporti qiymatini 5 milliard dollarga yetkazish, sohada yuz minglab yoshni band qilish, elektron hukumat sohasida yetakchi mamlakatlar qatoriga kirish kabi maqsadlar faqat texnologik infratuzilma barobarida yangi iqtisodiy tafakkur ham talab etadi. Bunday sharoitda universitetlar oldidagi vazifa yanada mas’uliyatli tus oladi. Chunki raqamli iqtisodiyotning kadrlar bazasi aynan oliy ta’lim tizimida shakllanadi. Dasturchi, iqtisodchi, moliyachi, muhandis, pedagog, huquqshunos, jurnalist yoki faylasuf, qaysi kasb egasi bo‘lishidan qat’i nazar, zamonaviy mutaxassis raqamli savodxon bo‘lishi, ma’lumot bilan ishlay olishi va texnologiyaning ijtimoiy oqibatlarini tushunishi zarur.

Shu o‘rinda raqamlashtirishning yana bir muhim jihati — raqamli madaniyat masalasiga to‘xtalish lozim. Texnologiya qanchalik kuchli bo‘lmasin, undan foydalanadigan inson mas’uliyatsiz bo‘lsa, kutilgan natijaga erishish imkonsiz. Raqamli muhitda axborot xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, kibermadaniyat, akademik halollik, intellektual mulk va sun’iy intellektdan mas’uliyatli foydalanish masalalari ahamiyati tobora oshmoqda. Zero, raqamlashtirishning eng katta xavfi — texnologiyani maqsad deb qabul qilish. Aslida, texnologiya — vosita. Maqsad esa insonga qulay, iqtisodiy jihatdan samarali, shaffof, adolatli va raqobatbardosh tizim yaratishdir. Shu nuqtai nazardan, raqamlashtirish faqat texnik islohot emas. U davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ta’lim, ilm-fan va jamiyat hayotining ichki mantig‘ini o‘zgartirayotgan tamadduniy jarayondir.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida bu jarayonning strategik ahamiyati shundaki, raqamlashtirish bizga resurslari cheklangan sharoitda ham samaradorlikni oshirish, inson kapitaliga tayangan iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va davlat xizmatlarini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi.

Farg‘ona davlat universitetida bu jarayon ta’lim, boshqaruv, talabalar bilan ishlash, innovatsiya va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish yo‘nalishlarida namoyon bo‘layotir. Bugun OTMda joriy etilgan har bir zamonaviy raqamli yechim ertangi iqtisodiyot uchun tayyorlanayotgan kadr, tejalayotgan vaqt, samarali boshqarilayotgan mablag‘, oshirilayotgan ta’lim sifati va shakllanayotgan yangi tafakkurdir. Eng muhimi, raqamlashtirish insonni tizimga moslashtirish emas, tizimni inson uchun yanada aqlli, tezkor, adolatli va qulay qilish tamoyiliga xizmat qilishi kerak.

Yangi O‘zbekistonning raqamli kelajagini qurish haqida gapirar ekanmiz, uning asosiy poydevori texnologiya emas, inson ekanini unutmaslik zarur. Zero, eng zamonaviy dastur ham, eng kuchli sun’iy intellekt ham, eng mukammal raqamli platforma ham odam manfaatiga xizmat qilgandagina haqiqiy iqtisodiy va ijtimoiy qiymatga aylanadi. Farg‘ona davlat universitetining bu jarayondagi vazifasi esa faqat raqamli texnologiyalardan foydalanish emas, balki raqamli iqtisodiyotni yaratadigan, boshqaradigan va uning insonparvar mazmunini ta’minlaydigan yangi avlodni tarbiyalashdir.

Faxr



TA’LIMDAN TOPILGAN DAROMAD – KELAJAKKA ENG YAXSHI SARMOYA

Yangi O‘zbekistonda o‘qituvchilik haqiqiy ma’noda sharafli kasbga aylandi. Chunki mamlakatimizda inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan siyosat sabab muallimlar huquqi tiklanib, maqomi yuksaldi. Pedagoglar ta’limdan ko‘ra ko‘proq qishloq xo‘jaligi ishlarini bajarardi. Majburiy mehnatga to‘liq barham berilgach, jamiyatimizda ustozlarga munosabat tubdan o‘zgardi. Quvonarlisi, ta’limdagi islohotlar izchil davom etmoqda. Masalan, joriy yilda “Yil o‘qituvchisi” tanlovi g‘oliblariga 616 million so‘mdan mukofot berildi. Ochig‘i, tanlov haqida eshitishim bilan unda ishtirok etaman deya bel bog‘ladim. Barcha bosqichdan muvaffaqiyatli o‘tib, “Yil o‘qituvchisi” degan sharafli nomga erishdim. Shu tariqa bir yo‘la beriladigan 50 ming dollarlik mukofotni qo‘lga kiritdim.

Gulzoda ESHONQULOVA,
“Yil o‘qituvchisi” tanlovi g‘olibi

Shuncha katta pulni qo‘lga kiritganimni eshitgan tanishlarim tabriklash asnosida uni nima uchun sarflashimga qiziqdi. Shunda hech ikkilanishsiz javob berdim: “Davlatimiz rahbari keng imkoniyatlar taqdim etib, yana maoshimizni ming dollargacha oshirib berdi. Shunday ekan, bunga men ham o‘z hissamni qo‘shaman. Ta’lim tufayli topgan pulimning bir qismini kitobxon yoshlarni rag‘batlantirishga sarflayman”, dedim.

Mamlakatimiz katta marralar sari dadil odimlamoqda. Ta’kidlanganidek, notinch dunyodagi tinch O‘zbekiston uchun har lahza shukrona aytishimiz kerak. Bu Vatan taraqqiyotiga qo‘shgan hissamizda ko‘rinadi.

Kechagiday esimda: 9-sinfda o‘qiyotganimda sinfdoshlarimiz bilan birga ba’zi fanlardan qo‘shimcha tayyorlana boshlaganmiz. Men shug‘ullanish uchun kimyo fanini tanlagandim. Buni eshitgan kishi borki, “Shifokor bo‘lasanmi?” deya so‘rardi. Lekin niyatim muallim bo‘lish edi. Chunki o‘sha vaqtlarda maktabimizda o‘qituvchi yetishmasligi sabab kimyo fani o‘tilmasdi. Qachongacha kimyoga qiziqadigan o‘quvchilar boshqa hududga qatnashi kerak deya o‘ylardim. Shu tariqa oliygohda kimyo yo‘nalishi bo‘yicha o‘qidim. O‘qishni tamomlagach, orzu qilganimdek, o‘zim o‘qigan Ko‘kdala tumanidagi 5-maktabda ish boshladim.

Ochig‘i, ilk bor maktabga ishga kelganimda katta oylik maosh olaman deya xayol qilganman. Maoshim chiqqach, qarasam, bir million so‘mga ham yetmadi. Lekin ahdimdan qaytmadim. Prezidentimiz o‘qituvchilarning oylik maoshi ming dollar bo‘lishi haqidagi gaplarni aytgach, ishimga



qiziqishim yanada ortdi. Astoydil harakatni boshlab yubordim. Intilishlarim zoye ketmadi. Asta-sekin ustamalarni qo‘lga kiritib, maoshim oshib bordi. Bu jarayonda o‘quvchilarimning ham yutuqlari ko‘rina boshladi. Ilgari tibbiyot yo‘nalishiga qiziqmagan bitiruvchilar kimyodan jiddiy tayyorgarlik ko‘rib, tibbiyot oliygohiga o‘qishga kiradigan bo‘ldi. Maoshim esa ming dollardan oshdi. O‘tgan o‘quv yilidan boshlab esa ikki ming dollardan ziyod oylik maosh oladigan bo‘ldim.

Bir paytlar ko‘kdalalik yoshlar ayrim fanlarni durust o‘qimay, maktabni tamomlardi. Avval aytganimizdek, o‘qituvchilar yetishmasdi. Moddiy qo‘llov ham, ijtimoiy himoya ham yo‘q edi. Shu bois, bu sohaga qiziqish kam edi. Hozir Ko‘kdalada ham o‘qituvchi bo‘laman deydigan yoshlar safi kengayib bormoqda.



Muhimi, Ko‘kdala yangi tuman etib belgilanib, hududga yangi hayot nafasi kirib keldi. Zamonaviy maktab va bog‘chalar qurildi. Shifoxonalar bunyod etilib, iqtisodiy-ijtimoiy masalalar hal qilindi.

Prezidentimizning Qashqadaryo viloyatiga tashrifi esa ana shu islohotlarga yanada ko‘tarinki ruh berdi. Masalan, zamonaviy, barcha sharoitga ega Yangi Qarshi shahri bunyod etiladigan bo‘ldi. Bundan barcha hamkasblarimiz quvondi. Bolalarimiz uchun yangi shahardan uy olishni niyat qildik. Yana bir olis tuman — Dehqonobod ham kelgusida yangicha qiyofa kasb etadi. Minglab ish o‘rinlari ochiladi. Bularning barchasi xalqimiz farovonligi, farzandlarimizning yuksak salohiyatli insonlar bo‘lib voyaga yetishiga xizmat qiladi.

Fitratning millatni uyg‘otishga intilishini tushunish uchun uning asarlariga o‘sha davr sharoitida nazar tashlash kerak. U o‘z jamiyati imkoniyatlarini ham, taraqqiyotga to‘sqinlik qilayotgan illatlarini ham ko‘rgan. Eng muhimi, mavjud ahvolni o‘zgartirish mumkinligiga ishongan.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 28-oktabr, 223-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Abdurauf Fitrat tavalludining 140 yilligiga

Ma’rifatga TIKILGAN UMR

XX asr boshlarida Buxoroda tug‘ilib, shu yerda ulg‘aygan bir yigitni o‘z yurtining ahvoli tobora ko‘proq o‘ylantira boshlaydi. Nega asrlar davomida ilm-fan va madaniyat markazlaridan biri bo‘lgan Buxoroda zamonaviy ta’lim keng yoyilmayapti? Nega dunyoning boshqa mamlakatlarida sanoat, texnika va ilm-fan rivojlanayotgan bir paytda bu yerda eski tartiblar hukmron? Nega jamiyatning kelajagini belgilaydigan masalalarda xalqning o‘zi deyarli ishtirok etmaydi? Bu savollar keyinchalik Abdurauf Fitratning butun ijodiy va ijtimoiy-siyosiy faoliyatini belgilab berdi.



Fitrat yashagan davrda Buxoro amirligida ta’limning asosiy qismi an’anaviy maktab va madrasalarda olib borilar, dunyoviy fanlarni o‘qitish imkoniyatlari cheklangan edi. Davlat boshqaruvidagi qoloqlik, amaldorlar o‘zboshimchaligi, iqtisodiy turg‘unlik jamiyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qilardi. Fitrat bu muhitni ichkaridan bilardi. U Buxorodagi an’anaviy ta’limni olgan, keyinchalik Istanbulda tahsil ko‘rib, Usmonli davlatidagi islohotchilik harakatlari va zamonaviy fikriy oqimlar bilan yaqindan tanishgan edi. Ana shu tajriba uning o‘z yurtiga munosabatini butunlay o‘zgartirdi. U Buxoroning muammolarini dunyoning boshqa jamiyatlarida kechayotgan o‘zgarishlar bilan qiyoslab baholay boshladi.

1911-yilda nashr etilgan “Munozara” asarida Fitrat Buxorodagi ta’lim tizimini bahs maydoniga olib chiqdi. Asarda an’anaviy maktab tarafdori bo‘lgan mudarris bilan yangi usuldagi ta’limni yoqlovchi hindistonlik o‘rtasidagi suhbat orqali jamiyatdagi muhim ziddiyatlar ochib beriladi. Fitratning asosiy e’tibori o‘qitish usullarini o‘zgartirishga qaratilgan bo‘lsa-da, u ko‘targan masalaning ko‘lami ancha keng edi. Chunki ta’lim qanday bo‘lsa, jamiyatda shakllanadigan fikrlash tarzi ham ko‘p jihatdan shunga bog‘liq.





O‘z haq-huquqini anglaydigan, dunyodagi o‘zgarishlardan xabardor, mustaqil mushohada yurita oladigan avlodni tarbiyalash uchun maktabning o‘zi ham o‘zgarishi zarur edi.

Fitratning keyingi faoliyatiga nazar tashlasak, uning nima uchun adabiyot, tilshunoslik, dramaturgiya, ta’lim va siyosat bilan bir vaqtning o‘zida shug‘ullanganini tushunish mumkin. U jamiyat muammolarini bir-biridan ajratib qaramagan. Maktabdagi ta’lim, oiladagi tarbiya, tilning mavqei, davlat boshqaruvi va millatning siyosiy ongi o‘zaro bog‘liq ekanini anglagan. Shuning uchun bir asarida oila va farzand tarbiyasi haqida fikr yuritsa, boshqasida mamlakatni idora qilish tartiblarini tanqid qilgan, yana birida xalqning tarixiy xotirasi va milliy o‘zligini anglash masalasini ko‘targan.

Fitratning millatni uyg‘otishga intilishini tushunish uchun uning asarlariga o‘sha davr sharoitida nazar tashlash kerak. U o‘z jamiyati imkoniyatlarini ham, taraqqiyotga to‘sqinlik qilayotgan illatlarini ham ko‘rgan. Eng muhimi, mavjud ahvolni o‘zgartirish mumkinligiga ishongan. Uning butun faoliyatida shu ishonch seziladi: xalqning kelajagi haqida qayg‘urish bugunini tanqidiy baholashdan, kamchiliklarini ochiq aytishdan va ularni bartaraf etish yo‘llarini izlashdan boshlanadi.


2026-yil 27-oktabr kuni Abdurauf Fitrat tavalludining 140 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida tashkil etilgan tadbirda uning merosiga yana bir bor murojaat qilish uchun rad etib bo‘lmas asoslar bor. Chunki Fitrat qoldirgan kitoblar faqat o‘tmishda qanday yashaganimiz haqida ma’lumot bermaydi. Ularda jamiyat qay tarzda rivojlanishi, ta’lim insonni qanday tarbiyalashi, ziyolining xalq oldidagi mas’uliyati nimalardan iborat bo‘lishi haqida hozir ham muhokama qilishga arziydigan o‘tkir fikrlar mavjud. Ularning qaysilari o‘z davri bilan birga tarixda qolgani, qay biri bugun ham ahamiyatli ekanini aniqlash esa Fitrat ijodini qayta va qayta o‘qishdan, uqishdan, o‘rganishdan boshlanadi.

Tadbir davomida anjuman ishtirokchilari e’tiboriga filologiya fanlari doktori, professor Begali Qosimovning Abdurauf Fitrat hayoti va ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan mualliflik filmi namoyish etildi. Film orqali adibning murakkab hayot yo‘li, ma’rifatparvarlik faoliyati va milliy adabiyotimiz taraqqiyotiga qo‘shgan beqiyos hissasi yoritilgan.

Tadbirda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid, filologiya fanlari doktorlari, professorlar Hamidulla Boltaboyev, Nurboy Jabborov, Uzoq Jo‘raqulov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist, yozuvchi Olim Toshboyev, Orzigul Hamroyeva ma’ruzalari bilan ishtirok etdi. Notiqlar Fitratning adabiyot, tilshunoslik, dramaturgiya, tarixshunoslik va musiqashunoslik sohalaridagi xizmatlari, uning milliy tafakkur rivojiga qo‘shgan hissasi hamda ijodiy merosining bugungi ahamiyati xususida fikr yuritdi.

Ozarbayjon Milliy ilmlar akademiyasi Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot instituti bosh ilmiy xodimi, filologiya fanlari doktori, professor Yashar Qosimbeylining videotabrigi anjumanning xalqaro ahamiyatini oshirdi. Ushbu ishtirok Fitrat merosi nafaqat O‘zbekistonda, balki qardosh xalqlar adabiy va ilmiy muhitida ham e’tiborga molik ekanini namoyon etdi.

Tadbir dasturidan Fitratning adabiy, ilmiy va ma’rifiy merosi, milliy uyg‘onish harakatidagi ishtiroki, shuningdek, adibning



“Tanlangan asarlar” to‘plami hamda yozuvchi Olim Toshboyevning “Fitrat” romani muhokamasi o‘rin oldi. — Adabiy-ma’rifiy anjuman doirasida O‘zbek davlat drama teatri ijodkorlari tomonidan “Turkiston bolalari” sahna asaridan parcha namoyish etildi, — deydi O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining birinchi o‘rinbosari Minhojiddin Mirzo. —

Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi o‘quvchilari adib she’rlaridan namunalar o‘qidi. Bu badiiy chiqishlar Fitrat ijodining nafaqat ilmiy-adabiy, balki estetik va tarbiyaviy qudratini ham namoyon etdi.

Anjumanda yozuvchi Olim Toshboyev O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida nashr etilgan “Fitrat” romani haqida so‘z yuritdi. Professor Orzigul Hamroyeva esa adibning “Tanlangan asarlari” to‘plami xususida fikrlarini bayon etdi. Mazkur nashrlar Fitratning boy adabiy merosini keng kitobxonlar ommasiga yetkazish, asarlarini yanada chuqurroq o‘rganish yo‘lidagi muhim qadamlardan hisoblanadi.

— Bugun Fitratni o‘qishga qiziqish ortib borayotgan bo‘lsa, bu qiziqishni puxta ilmiy tadqiqotlar bilan ta’minlashimiz kerak, — deydi yosh shoir, “Guliston” va “Teatr” jurnallari birlashgan tahririyati muxbiri Bahodir Jovliyev. — Masalan, uning ta’lim haqidagi qarashlarini o‘rganayotgan tadqiqotchi faqat biror asari bilan cheklanib qolmay, o‘sha davrdagi maktablar ahvoli, jadidlarning ta’lim dasturlari va ularga qarshi bildirilgan fikrlarni ham tahlil qilishi lozim. Shunda Fitratning qaysi takliflari o‘z davri uchun yangilik bo‘lgani, qaysilari kengroq islohotchilik harakatining tarkibiy qismi ekani oydinlashadi.

Qatag‘on qurboni bo‘lgan Fitratning hayoti va taqdiri millat ma’naviyati yo‘lidagi fidoyilik, erkin fikr va ma’rifat uchun kurashning achchiq saboqlarini o‘zida mujassam etadi. Uning asarlari bugun ham milliy o‘zlik, Vatan taqdiri, inson qadri va taraqqiyot haqida mushohada yuritishga undaydi.

Abdurauf Fitrat tavalludining 140 yilligiga bag‘ishlangan anjuman ulug‘ adib xotirasini e’zozlash, ilmiy-ijodiy merosini yangi avlodga yetkazish va milliy adabiyotimiz tarixidagi o‘rnini yanada chuqur anglash yo‘lidagi muhim ma’naviy tadbir bo‘ldi.

Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Munosabat

2017-yili davlatimiz rahbari taniqli ijodkorlar va ziyolilar bilan o‘tkazilgan uchrashuvda kinoning yoshlar tarbiyasidagi, madaniyatini shakllantirishdagi o‘rnini yuqori baholab, muhimligi bo‘yicha bu soha hattoki mudofaa masalasi bilan teng yoxud undan-da baland ekanini ta’kidlagan edi. Biz, kinoijodkorlar o‘shandayoq bu e’tirofdan ruhlanib, oldimizga katta-katta maqsadlarni qo‘yganmiz.

MEHNATINING QADRLANISHI IJODKOR UCHUN KATTA BAXT



Zulfiqor MUSOQOV,
kinorejissyor

Kuni kechagi uchrashuv esa soha tarixida yana bir yangi bosqichga yo‘l ochdi desak, xato bo‘lmaydi. Ta’kidlashni istardimki, uchrashuvning nihoyatda samimiy va ko‘tarinki kayfiyatda o‘tgani ham ishtirokchilarni barakali ijodga ruhlantirgani aniq. Turfa fikrlar, ularga javoban Prezidentimiz tomonidan bildirilgan iliq munosabat — umuman, hamma-hammasi juda tabiiy va o‘z holicha kechdi.

Menga bildirilgan ishonch va taqdim etilgan mukofotga keladigan bo‘lsam, rosti, bunday e’tibor uchun minnatdorligimni so‘z bilan ifodalashim oson emas. Men 45 yildan buyon yashab kelayotgan hozirgi uyimga ikki yigit kelib, “Tayyor bo‘lib turing, chiroyli kiyinib oling”, deganida ham yangi uyga ega bo‘lishim xayolimning bir chetiga kelmagan edi.

“Qayerga boramiz?” desam, “Borganda bilasiz”, deyishdi. Ayolim bilan mashinaga o‘tirdik. Qarasam, men o‘ylagandan butunlay boshqa tomonlarga qarab ketayotgan edik. Manzilga yetib borganimizda, ne ko‘z bilan ko‘rayki, Yangi Toshkentdagi “Sharq bahori” turar joy majmuasidan menga 3 xonali uy berilibdi. Mehnatim va ijodimni qadrlab, uch xonali uy sovg‘a qilgani uchun Prezidentimizga o‘zim va oilam nomidan chin qalbimdan rahmat aytaman.

Aslida, ijodkor uchun eng katta baxt uning qilgan mehnati qadr topishi, yaratgan asarlari odamlarga kerak bo‘lishidir. Shunday bo‘lsa-da, davlatimiz rahbari azaldan ijodkorning o‘z boshpanasi va yetarli sharoiti bo‘lishi zarurligini, shundagina sara asarlar tug‘ilishini aytib keladi. Ko‘plab ijod ahli vakillari, xususan, yozuvchilar soliqdan ozod qilinyapti hamda uy bilan ta’minlanyapti. Albatta, bu — katta baxt. Zero, uy inson uchun faqat boshpana emas, balki xotirjamlik, fayz va yangi ijod uchun ilhom manbai hamdir. Shunday aktyorlarimiz, rejissyorlarimiz, yozuvchilarimiz borki, ular butun umrini mana shu sohaga bag‘ishlagan. Masalan, men ham o‘zimni kino olishdan boshqa ishda tasavvur qilolmayman. Butun umr shu sohada ishladim. Shu ma’noda, yangi uy menga katta quvonch ulashish bilan birga zimmamga yanada katta mas’uliyat yukladi.

Bunday alohida e’tiborni faqat o‘zimgagina emas, balki butun o‘zbek kino san’atiga hurmat deb qabul qilaman. Bu o‘sha “Abdullajon”, “Osmondagi bolalar”, “Novda” kabi xalq sevgan filmlardagi barcha qahramonlar va ijodkorlarning yutug‘idir. Avvalo, o‘sha asarlar sabab men bugun davlat rahbari hurmatiga sazovor bo‘lib turibman. To‘g‘ri, hali yurtdoshlarimizga aytadigan gaplarim, suratga oladigan filmlarim va bu boradagi istiqbolli rejalarim bor. Qolaversa, uchrashuvda kinoindustriyamizni rivojlantirish borasida qator vazifalar belgilab berildi. Shulardan kelib chiqqan holda, qo‘limdan kelganicha o‘zbek kinosiga, xalqimiz ma’naviyatiga xizmat qiladigan asarlar yaratishga harakat qilaman.

YURTIMIZ ISTE’DODLARGA BOY

Davlatimiz rahbari kinematografiya sohasi xodimlari bilan uchrashib, tizimdagi ishlar va kelgusi rejalarni muhokama qilayotgani ortidan bugun mazkur san’at turi qanday rivojlanish pallasida ekani hamda uning istiqboli yorug‘ligiga yana bir bor guvoh bo‘lyapmiz. Prezidentimiz jon kuydirib, milliy kino sanoatini yuksak dovonlarga olib chiqish maqsadida ijodkorlarga zarur sharoitlarni yaratib beryapti. Hatto yosh iste’dodlar ham davlatimiz rahbarining e’tiborida.



Alisher UZOQOV,
aktyor, rejissyor

O‘tgan yili tashkil etilgan Bolalar kontentini rivojlantirish markazi qisqa muddatda ulkan loyihalari bilan maydonga chiqdi. Bolalarning tarbiyasi va sog‘lig‘iga salbiy ta’sir etadigan kontentni tahlil qilish, o‘g‘il-qizlar uchun foydali, o‘zbek tilidagi sifatli kontent hajmini oshirish, farzandlarimizning milliy qadriyatlar va madaniy merosga hurmatini kuchaytirish, sohaga yetuk kadrlar tayyorlab berish va boshqa qator vazifalarni bajarishga kirishgan markaz tashkil etilganda birinchilardan bo‘lib takliflarimni bildirgan edim.

Chunki so‘nggi yillarda sohadagi oqsash aynan mana shu yo‘nalishda bo‘lib, vaziyatni o‘nglash zarurati kechiktirib bo‘lmas darajada edi. Shu yurtning bir fuqarosi, qolaversa, aktyor va rejissyor sifatida bu xayrli ishga hissamni qo‘shishni istadim. Markaz bilan hamkorlikda “Chempion” filmini suratga oldik. U birinchi to‘liq metrajli badiiy film hamda dolzarb g‘oya, muhim mavzuga bag‘ishlangan. Bolalar va oilaviy auditoriyaga mo‘ljallangan, bolalik orzulari, maqsad sari intilish va sport mavzulari yoritilgan. Loyiha bolalarning sportga qiziqishini oshirish, orzu-intilishlarini qo‘llab-quvvatlash hamda milliy bolalar kinosi rivojiga hissa qo‘shishga qaratilgani bilan ahamiyatli bo‘ldi.

Bolalar kontentini rivojlantirish markazida bu kabi juda ko‘p loyihalar ishga tushirilgan. Ular orasida “O‘g‘iloy”, “Sersavol” loyihalari, “Sehrlandiya” va boshqa to‘liq metrajli multfilmlar, yosh bolalarga yo‘l qoidalarini o‘rgatadigan “Ustoz Tiprabek” kabi multiseriallar bor. Yaratilgan sharoit va imkoniyatlar tufayli bugun bolalarimizga bemalol, xotirjam o‘zimizning kontentlarni ko‘rsata oladigan darajaga yetib keldik.

Uchrashuvda ilgari surilgan Yosh ijodkorlar maktabi platformasini yaratish, uni Toshkent tajribasi sifatida qo‘llash tashabbusi yaqin kelajakda samara berishiga aminman. Menga ham yuksak ishonch bildirilib, ushbu tashabbusni hayotga tatbiq etish mas’uliyati zimmamga yuklandi. Avvalo, Prezidentimizning bu topshirig‘idan juda ruhlandim. Qolaversa, bu yo‘nalishni, ya’ni san’at sohasida yosh iste’dodlilarni kashf etishni o‘zim ham yaxshi ko‘raman. Menga aynan mana shu yo‘nalishda topshiriq berilgani bejiz emas. Davlatimiz rahbari yoshlar bilan ishlash borasidagi tajribamdan xabardor ekan. Bir necha yil avval The Cover Up, Top Music kabi qator musiqiy loyihalarda yoshlar bilan ishlaganman.

Bu yo‘nalishni qanday tasavvur qilyapman?

Nasib etsa, Yosh ijodkorlar maktabi nafaqat kino, balki musiqa, teatr aktyorlari, dublyaj ustalari, estrada va mumtoz ashulachilik yo‘nalishi xonandalari, umuman, san’at iste’dodlarini kashf etadi. Chunki yurtimizda ular juda ko‘p.

Davlatimiz rahbarining “Kerak bo‘lsa, Gollivudga olib borib o‘qitib kelishga ham tayyorman, bular Gollivudda O‘zbekiston bayrog‘ini ham ko‘taradi”, degan rag‘bati esa iste’dodlilarni yuzaga chiqarish yo‘lidagi har qanday mashaqqatni yengish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-1046.
29213 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Azizbek Yusupov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.